

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

N.MUMINOVA

XALQARO TASHKILOTLAR

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT – 2014

JIDUning O'quv-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan mazkur o'quv qo'llanma xalqaro munosabatlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va xalqaro huquq ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda xalqaro tashkilotlarning umumiy tushunchasi va klassifikatsiyasi, BMT, YUNESKO, NATO, YEXHT, YEI, ASEAN, SHHT kabi tashkilotlar misolida ularning yaratilish tarixi, ko'p qirrali faoliyati, institutsional tuzilmasi, asosiy hujjatlari, hamkorlikning mexanizmlari va xususiyatlari o'rganilgan va ko'rib chiqilgan, xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Taqrizchilar: Tulyaganova N.U., s.f.d., professor

Xo'janov B.A., s.f.n.

© Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. Toshkent, 2013.

© JIDU. Toshkent, 2014.

MUNDARIJA

Kirish. O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar tizimida	4
Xalqaro tashkilotlar tushunchasi, klassifikatsiyasi, xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni	6
Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)	8
Ta'lim, Fan va Madaniyat Masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, UNESCO)	17
Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)	22
Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT)	31
Yevropa Ittifoqi (YEI)	36
Janubi–Sharqiy Osiyo Mamlakatlarining Assotsiatsiyasi (Association of South East Asian Nations, ASEAN)	42
Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)	48
Adabiyotlar ro'yxati	57

Kirish. O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar tizimida

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy tizimi noan'anaviy aktorlarni tabiiy ravishda o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ulardan eng muhimini xalqaro tashkilotlar deb hisoblaydi. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlar nazariyasi jahon hamjamiyatining integratsion jarayonlariga qaratilgan bo'lib, keng ravishda davlatlar, mintaqaviy birlashmalar, xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi ko'p tomonlama munosabatlarni o'rganadi. Davlatlarni tashqi siyosiy strategiyasining shakllanishi borasida yangi geosiyosiy vaziyatdagi va globalizatsiyaning intensiv rivojlanishi sharoitidagi xalqaro tashkilotlar tizimida hamkorlikni, muvofiqlashni va o'zaro munosabatlarni – umuman, ko'p tomonlama diplomatiyaning xususiyatlarini – o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlatning tashqi siyosati tamoyillarini belgilab, ta'kidlaydi: «Davlat mustaqilligiga erishish, BMTga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirish O'zbekistonga o'zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda o'tkazish, jahon hamjamiyatiga kirishning o'z yo'llarini ishlab chiqish, davlatlararo munosabatlarning yo'nalishlari va ustuvorliklarini belgilash imkonini berdi.

O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama faol tashqi siyosatni amalga oshirish – davlatimizning mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish va xalq turmushini yaxshilashning zarur sharti va g'oyat muhim vositasidir»¹.

Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro tashkilotlar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir:

- ❖ 1992-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi BMT safiga qo'shildi, 1993-yildan boshlab davlatimiz BMT Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikni hamda 1999-yildan boshlab mamlakatlar bilan hamkorlik Dasturi bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirmoqda, 2010-yilda esa «2010-2015-yillargi Mamlakat dasturining harakatlar rejasi» qabul qilindi, bundan tashqari, hozirgi kunda O'zbekistonda BMTning bir necha ixtisoslashgan agentliklari faoliyat yuritmoqdalar (YUNISEF, Jahon Banki, YUNEDS, YUNODK, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, YUNESKO va boshqalar);

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 1992. – Б. 24.

- ❖ 1992-yil 30-yanvarda O'zbekiston YEXHK/YEXHTga qo'shildi, 2006-yil 30-iyunda Toshkentdagi YEXHTning Markazi «O'zbekistondagi Loyiha muvofiqlashtiruvchisi» (Project Co-ordinator in Uzbekistan) nomiga ega bo'lib, hamkorlikning yangi qirralarini belgiladi;
- ❖ 1996-yilda O'zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan «Sheriklik va hamkorlik haqidagi kelishuv»ni imzoladi, ushbu kelishuv 1999-yili kuchga kirdi; 2007-yilda YEI hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bir necha hujjatlarni qabul qildi, bulardan: «2007-2013-yillar Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoni qo'llab-quvvatlash mintaqaviy strategiyasi» (EC Regional Strategy Paper for Central Asia 2007-2013), 2007-2010-yillar Markaziy Osiyoning indikativ dasturi (Central Asia Indicative Programme 2007-2010), Hamkorlikni rivojlantirish instrumentlari (Development Cooperation Instrument);
- ❖ 1994-yil 13-iyulda O'zbekiston NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasidagi kelishuvni imzoladi, 1996-yilda esa NATO va O'zbekiston Hamkorligining individual dasturi qabul qilindi, bundan tashqari, NATOning alohida qo'mitalarini YEAHK formatidagi «Tinchlik va xavfsizlik yo'lidagi fan», «Virtual Ipak yo'li» va boshqa dasturlari vositasida hamkorlik rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston yuzdan ortiq xalqaro tashkilotlarga a'zodir.

Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni muvofiqlashtirish va kengaytirish, ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash rakursida O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy konsepsiyasini chuqur anglash yo'lida tuzilgan mazkur kurs xalqaro munosabatlar mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lgan talabalar uchun mo'ljallangandir.

Xalqaro tashkilotlar tushunchasi, klassifikatsiyasi, xalqaro munosabatlarda tutgan o'рни

Xalqaro tashkilot – bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalardagi hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xalqaro shartnomaga asoslangan hamda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda tuzilgan davlatlar birlashmasidir. Ushbu davlatlar birlashmasining asosiy shartli belgilari: (a) zarur bo'lgan organlar tizimiga egaligi, (b) davlatlar huquq va majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan birlashmaning huquq va majburiyatlarining mavjudligi hamda (c) a'zo-davlatlar ixtiyori bilan bog'liq bo'lgan birlashmaning avtonom ixtiyoriga egaligi. Xalqaro tashkilotlarning davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarining huquqiy negizini 1969-yil 23-mayda qabul qilingan «Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki o'zaro xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena Konvensiyasi» namoyon etadi.

Ko'p tomonlama hamkorlikda xalqaro tashkilotlarni o'рни beqiyosdir, chunki ular bir nechta vazifalarni o'z faoliyatlariga qamrab olganlar. Ushbu vazifalardan eng muhimlari quyidagilardir:

- ❖ xalqaro muammolar haqida axborotni yig'ish, tahlil qilish va tarqatish,
- ❖ o'zaro aloqalar forumi sifatida xizmat qilish,
- ❖ normalarni belgilash,
- ❖ yangi normalarni tuzish,
- ❖ nazoratni (monitoring) amalga oshirish,
- ❖ operativ (amaliy) faoliyatni olib borish,
- ❖ xalqaro-ijtimoiylashtiradigan vazifalarni bajarish.

Umumiy hamma qabul qilgan klassifikatsiyaga muvofiq xalqaro tashkilotlar bir necha turlarga bo'linadilar:

(1) a'zolik xarakteriga ko'ra – davlatlararo (hukumatlararo) tashkilotlar va nohukumat tashkilotlar,

(2) ishtirokchilar doirasiga ko'ra – universal (BMT) va mintaqaviy (Afrika Birligi Tashkiloti, Mintaqaviy Hamkorlik uchun Janubiy Osiyo Assotsiatsiyasi),

(3) faoliyat doirasiga ko'ra – umumiy kompetensiyaga ega (BMT) va maxsus kompetensiyaga ega (Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro Atom Enerziyasi Agentligi, NATO),

(4) vakolat xarakteriga ko'ra – davlatlararo (YEXHT) va yuqori davlatlar tashkilotlar (Yevropa Ittifoqi),

(5) qabul qilish tartibiga ko'ra – ochiq va yopiq tashkilotlar.

Keng tarqalgan klassifikatsiyaga muvofiq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bir necha turlarga bo'linadilar:

(1) «geosiyosiy» mezonga ko'ra:

- ❖ universal (Millatlar Ligasi, BMT);
- ❖ mintaqalararo (Islom Hamkorlik Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti);
- ❖ mintaqaviy (Mintaqaviy Hamkorlik uchun Janubiy Osiyo Assotsiatsiyasi);
- ❖ submintaqaviy (Benilyuks);

(2) faoliyat yo'nalishi va sohasiga ko'ra:

- ❖ umummaqsadli (BMT);
- ❖ iqtisodiy (Yevropa Ko'mir va Po'lat Birlashmasi);
- ❖ harbiy-siyosiy (NATO);
- ❖ moliyaviy (XVF, Jahon Banki);
- ❖ ilmiy («Evrika»);
- ❖ texnikaviy (Telekommunikatsiyalar Xalqaro Ittifoqi);
- ❖ tor doirali ixtisoslashgan tashkilotlar (O'lchov va Vazn Xalqaro Byurosi).

Xalqaro tashkilotlar ko'p tomonlama diplomatiyaning eng harakatchan va kuchli ta'sir ko'rsatadigan ishtirokchilaridan biri bo'lib hisoblanadilar. Ko'p tomonlama diplomatiyaning asosini ishtirokchilar soni ikkitadan ortiq bo'lgan muzokaralarni olib borish faoliyati belgilaydi. Ko'p tomonlama diplomatiyaning formati muzokaralar jarayonining bir necha darajalari bilan namoyon etilgan: 1) kongresslar, 2) vakolatxonalar va elchixonalar, 3) universal va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, 4) konferensiyalar, 5) komissiyalar, 6) sammitlar.

Misol sifatida, kongresslar diplomatiyasini tarixiy 1648-yildagi Vestfaliya kongressi, 1814-1815-yillardagi Vena kongressi, 1818-yildagi Aaxen kongressi, 1856-yildagi Parij konferensiyalari yorqin namoyon etadilar. Xalqaro tashkilotlar diplomatiyasini BMT, YUNESKO, NATO, YEXHT, YEI, ASEAN, SHHT kengashlari tahlili asosida o'rganish mumkin. Konferensiya va komissiyalar diplomatiyasi esa ma'lum xalqaro mavzu va muammolarga bag'ishlangan forumlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Dolzarb va aniq siyosiy, iqtisodiy, harbiy-strategik va boshqa xalqaro masalalarga bag'ishlangan sammitlar diplomatiyasini davlat va hukumatlar rahbarlari uchrashuvlari tashkil etadi. Zamonaviy ko'p tomonlama diplomatiyaning yana bir muhim omillaridan – mavzularning kengligi va xilma-xilligidir: qurolsizlantirish masalalari, terrorizmga qarshi kurashish, atrof muhitni muhofaza qilish, mehnat migratsiyasi, mojarolarni, inqirozli vaziyatlarni, ijtimoiy muammolarni hal qilish va h.k.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xalqaro tashkilotlar tizimining markaziy tuzilmasi bo'lib hisoblanadi. BMT 1945-yilda tashkil topgan. Bugungi kunda BMT 193 ta mamlakatni birlashtiradi. BMT shtab-qarorgohi Nyu-Yorkda joylashgan. Tashkilot Jeneva, Vena va Nayrobi shaharlarida ham o'z bo'linmalariga ega. BMTning institutsional tuzilmasini besh asosiy boshqarmalari/organlari (Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Kotibiyat, Xalqaro Sud) xamda o'z faoliyatini to'xtatib qo'ygan Vasiylik Kengashi tashkil qiladi. BMTda tasdiqlangan rasmiy tillar ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari hisoblanadi. BMT tizimi 15 ta ixtisoslashgan muassasalardan va bir nechta dastur hamda boshqarmalardan iborat. Ikki yillik muddatdan iborat bo'lgan Tashkilotning byudjeti Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlanadi. 1988-yildan boshlab ushbu byudjetning tasdiqlanishi konsensus asosida belgilanadi.

BMT tashkil topishining qisqa tarixi, asosiy bosqichlari²:

❖ 1941-yil iyun oyida London deklaratsiyasi qabul qilindi.

Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika hamda «surgun qilingan hukumatlar» – «governments in exile» (Gretsiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Norvegiya, Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya va Fransiya (General de Goll)) vakillari Londonning ko'hna San-Djem saroyida yig'ilib, urushdan keyingi tinchlikni o'rnatish bo'yicha faoliyatlari va jahonning kelajak tartiboti to'g'risidagi rejalar aks ettirilgan London deklaratsiyasini imzoladilar.

❖ 1941-yil avgust oyida AQSH Prezidenti F.D. Ruzvelt hamda Buyuk Britaniyaning Bosh vaziri U.Churchill tomonlaridan «Atlantik xartiyasi» imzolandi.

❖ 1942-yilda «Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasi» imzolandi. 1942-yil 1-yanvarda AQSH Prezidenti F.D. Ruzvelt, Buyuk Britaniyaning Bosh vaziri U.Churchill, Sovet Ittifoqi nomidan M. Litvinov hamda Xitoy vakili Szi-ven «Birlashgan Millatlar Deklaratsiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan hujjatni imzoladilar. 1942-yil 2-yanvarda ushbu deklaratsiya yigirma ikkita davlat vakillari tomonidan qabul qilindi. Imzolangan hujjat orqali yigirma oltita mamlakat birgalikda g'alabani qo'lga kiritish hamda bir

² Batafsil qarang: Устав ООН: его история и значение. – ООН, 1948 г. – на <http://www.un.org/>

tomonlama sulhni tuzmaslik (separate peace treaty) majburiyatini o'z zimmlariga oldilar.

Barcha kelgusi konferensiyalar yangi tashkilotning institutsionallashtirishini «bitirdilar» va qaror qabul qilish tamoyillarini hamda tashkilotning boshqarmalarini ishlash tartibini belgiladilar, ushbu konferensiyalar quyidagilardir:

- ❖ Moskva shahridagi konferensiya (1943-yil);
- ❖ Tehron shahridagi konferensiya (1943-yil);
- ❖ Dumbarton-Oks konferensiyasi (1944-yil);
- ❖ Yalta konferensiyasi (1945-yil);
- ❖ 1945-yili San-Fransisko shahrida Xalqaro tashkilotni

tuzish bo'yicha Birlashgan Millatlar konferensiyasining so'nggi majlisida tashkilotning Nizomi imzolandi.

BMT Nizomi I bobi 1-moddasiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkilotining *maqsadlari* quyidagilardan iborat³:

1. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash va ushbu maqsadda tinchlikka tahdidni oldini olish va uni bartaraf etish va tajovuz harakatlari yoki tinchlikka raxna soluvchi boshqa harakatlarni bostirish uchun samarali kollektiv (birgalikda) choralar ko'rish hamda adolat va xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan holda tinchlik vositalaridan foydalanib, tinchlikning buzilishiga olib keluvchi xalqaro nizo yoki vaziyatlarni tinchitish yoki hal etish;

2. Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi tamoyilini hurmat qilish asosida millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish hamda umumiy tinchlikni mustahkamlash uchun boshqa tegishli choralarni ko'rish;

3. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda hamda inson huquqlariga va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar asosiy erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish va

4. Ushbu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatlarini muvofiqlashtirish markazi bo'lish.

BMT Nizomi I bobi 2-moddasiga binoan Tashkilotning *tamoyillari* quyidagilardan iborat:

1. Tashkilot o'zining barcha A'zolarining suveren tengligi tamoyiliga asoslanadi;

³ Qarang: Устав Организации Объединенных Наций. Сан-Франциско, 26 июня 1945 г. – на <http://www.un.org/>; BMT Nizomining I bobi 1- va 2-moddalari bo'yicha qarang: Nizomning no'rasmiy tarjimasini Xakimov P. Uzbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. – Toshkent: "F. Fyulom nomidaagi Adabiyet va san'at nashriyati", 2001. – B. 141-142.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha A'zolari hammalarini Tashkilot A'zolari tarkibiga mansublikdan kelib chiqadigan barcha huquq va imtiyozlar bilan ta'minlash uchun ushbu Nizom bo'yicha zimmalariga olgan majburiyatlarini vijdonan bajaradilar;

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha A'zolari xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni tahdid ostiga qo'ymaslik uchun o'zlarining xalqaro nizolarini tinchlik vositalari bilan hal qiladilar;

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha A'zolari o'zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek, Birlashgan Millatlar Maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzdagi harakatlardan o'zlarini tiyadilar;

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha A'zolari unga ushbu Nizomiga muvofiq amalga oshirayotgan barcha harakatlarida har tomonlama yordam beradilar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qaysi davlatga qarshi ogohlantiruvchi (preventiv) yoki majburlovchi xarakterdagi harakatlar amalga oshirilayotgan bo'lsa, bunday davlatga yordam ko'rsatishdan o'zlarini tiyadilar;

6. Tashkilot o'ziga a'zo bo'lmagan davlatlarning shu Tamoyillar asosida harakat qilishlarini ta'minlaydi, zero bu xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lishi mumkin;

7. Ushbu Nizom Birlashgan Millatlar Tashkilotiga har qanday davlatning aslida ichki vakolatiga kiradigan ishlariga aralashish uchun aslo huquq bermaydi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining A'zolaridan bunday ishlarini ushbu Nizom doirasida hal etishga kiritishni talab etmaydi;

ammo ushbu tamoyil VII Bobga asoslanib, majburiy choralar qo'llanishiga daxldor emas.

BMT Bosh Assambleyasi (BA) tashkilotning barcha a'zolaridan iborat. Har bir davlat Bosh Assambleyada bitta ovozga ega. BA doimiy ravishda har yilgi hamda maxsus va odatdan tashqari sessiyalarni olib boradi. Kun tartibidagi qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz berish bilan qabul qilinadi va a'zo-davlatlar tomonidan ijro etilishi majburiy emasdir.

BMT Xavfsizlik Kengashi (XK) o'n beshta a'zodan iborat; ulardan beshtasi doimiy a'zo (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya va Xitoy) bo'lib, qolgan o'nta nodoimiy a'zolari BA tomonidan ikki yil muddatga saylanadi. Qarorlar Kengashning

barcha doimiy a'zolarining (veto huquqini ishlatmasdan) bir xil ovozlarni qo'shib hisoblaganda to'qqiz a'zosi yoqlab ovoz bergan bo'lsa, qabul qilingan deb hisoblanadi.

Xalqaro tinchlikka har qanday tahdid to'g'risida masalalarni ko'rib chiqilishi holatlarida XK g'oyat keng vakolatlarga ega, jumladan, u iqtisodiy sanksiyalarni qo'llash hamda qurolli kuchlarni ishlatish to'g'risida qaror beradi. Odatda Xavfsizlik Kengashi sanksiyalar (iqtisodiy, siyosiy, diplomatik, moliyaviy hamda boshqa majburiy choralarni) va majburiy qurolsizlantirish (masalan, Iroqqa nisbatan) kabi «ta'sir ko'rsatadigan qurollar»ni samarali qo'llaydi.

BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (IIK) tegishli muammolarni hal etish yo'llarini muhokama qilib, a'zo-davlatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqib, tadqiqotlarni amalga oshirib, maxsus ma'ruzalarni tayyorlab, konferensiyalarni chaqirib va h.k., BMT doirasida iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanadi. Uning har yili uchdan bir qismi yangilanib turadigan tarkibiga BMT BA tomonidan saylanadigan 54 a'zo-davlat kiradi.

BMT Vasiylik Kengashi (VK) 1945-yilda mavjud bo'lgan o'n bitta vasiylik hududlarning o'zini o'zi boshqarish va mustaqilligini o'rnatish borasida ko'maklashish uchun tuzilgan edi. 1990-yillarning o'rtasida AQSH vasiyligida bo'lgan Paulu nomli hudud («vasiylik hududlar»dan oxirgisi) mustaqil bo'lganidan so'ng BMT Vasiylik Kengashining amaliyoti to'xtatildi.

BMT Kotibiyati ma'muriy vazifalarni bajaradi. Tashkilot faoliyatida muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan Bosh Kotib tomonidan boshqariladi. Bosh Kotib BMTning Xavfsizlik Kengashi tavsiyasi bilan Bosh Assambleya tomonidan (odatda 5 yil muddatga) tayinlanadi.

Bosh Kotiblar: Tryugve Li (Norvegiya) (1946-1952-yy.), Dag Xammarsheld (Shvetsiya) (1953-1961-yy.), U Tan (Myanma) (1961-1971-yy.), Kurt Valdxaym (Avstriya) (1972-1981-yy.), Xavyer Peres de Kuelyar (Peru) (1982-1991-yy.), Butros Butros G'oliy (Misr) (1992-1996-yy.), Kofi Annan (Gana) (1997-2006-yy.), Pan Gi Mun (Koreya Respublikasi) (2007-y. – h.k.).

Xalqaro Sud Gaaga shahrida (Gollandiya) joylashgan va u o'n besh sudyalardan iborat. Sudyalar Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan to'qqiz yil muddatga saylanadi. Sudning rasmiy tillari fransuz va ingliz tillari hisoblanadi. Faqat davlatlarga Sudda ishi ko'rilayotgan tomonlar bo'lishi mumkin.

BMTning «oilasiga» (UN Family) o'n beshta *ixtisoslashtirilgan muassasalar* (ma'lum bir vazifaga yo'naltirilgan hukumatlararo tashkilotlar) kiradi.

*BMT tizimi*⁴.

BMT Bosh Assambleyasiga hisobot beruvchi qo'mitalar, ishchi guruhlar, muassasalar quyidagilardir: *Bosh qo'mitalar*; *Yordamchi organlar* (Agentliklar, guruhlar va ishchi guruhlar, komissiyalar, qo'mitalar, kengashlar); *Konsultativ (yordamchi) organ* (Tinchlikni o'rnatish bo'yicha BMTning komissiyasi); *Agentliklar, dasturlar va fondlar* (Falastin Qochoqlariga Yordam Berish va Ishlarni Tashkillashtirish bo'yicha BMTning Yaqin Sharqdagi Agentligi, Qochoqlar bo'yicha BMTning Oliy Komissari, Jahon Oziq-Ovqat Dasturi, BMT Bolalar Fondi (YUNISEF), BMTning Savdo va Taraqqiyot bo'yicha Konferensiyasi (YUNKTAD), Narkotik Moddalarini Xalqaro Nazorat Qilish bo'yicha BMTning Dasturi (YUNDKP), Aholi Yashaydigan Joylar bo'yicha BMTning Dasturi (YUN-Xabitat), Atrof Muhit bo'yicha BMTning Dasturi (YUNEP), BMTning Taraqqiyot Dasturi (YUNDP), BMTning Ko'ngillilar Dasturi, BMTning Katta Rivojlanish Fondi, Ayollar Manfaatlari Rivojlanish bo'yicha BMTning Fondi (YUNIFEM), Xalqaro Savdo Markazi, Aholi bo'yicha BMTning Fondi (YUNFPA)); *O'quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari* (Qurolsizlantirish Muammolarini Tadqiq Qilish bo'yicha BMTning Instituti (YUNIDIR), Ayollar Holatini Yaxshilash bo'yicha Xalqaro O'quv va Ilmiy-Tadqiqot Instituti, Jinoyatchilik va Qonunchilik Masalalari bo'yicha BMTning Mintaqalararo Ilmiy-Tadqiqot Instituti (YUNIKRI), BMT qoshidagi Ijtimoiy Rivojlanish Ilmiy-Tadqiqot Instituti (YUNRISD), BMTning O'quv va Ilmiy-Tadqiqot Instituti (YUNITAR)) va h.k.

BMT Xavfsizlik Kengashiga hisobot beruvchi qo'mitalar, ishchi guruhlar, muassasalar quyidagilardir: *Yordamchi organlar* (Harbiy-shtabli qo'mita, 1540 Qo'mitasi, Sanksiyalar bo'yicha qo'mita, Kompensatsiya (tovon) komissiyasi, Aksilterroristik qo'mita, Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro tribunal, Ruanda bo'yicha xalqaro tribunal, Tinchlikni saqlash bo'yicha BMTning operatsiyalari, Doimiy qo'mitalar, Bolalar va qurolli mojarolar masalalari bo'yicha ishchi guruhlar, Hujjatlar va protsedura masalalari bo'yicha ishchi guruh); *Konsultativ organlar* (Tinchlikni o'rnatish bo'yicha BMTning komissiyasi).

⁴ Batafsil qarang: <http://www.un.org/>

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashiga hisobot beruvchi qo'mitalar, ishchi guruhlar, muassasalar quyidagilardir: *IIKning funksional komissiyalari* (Narkotik moddalar bo'yicha komissiya, Aholi va taraqqiyot bo'yicha komissiya, Rivojlanish maqsadida fan va texnika bo'yicha komissiya, Ayollar holati bo'yicha komissiya, Jinoyatchilikni oldini olish va jinoiy qonunchilik bo'yicha komissiya, Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiya, Ijtimoiy rivojlanish komissiyasi, BMTning o'rmonlar bo'yicha forumi); *IIKning mintaqaviy komissiyalari* (Yevropaning iqtisodiy komissiyasi, Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, G'arbiy Osiyo uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Afrika uchun iqtisodiy komissiya, Lotin Amerika va Karib dengizi uchun iqtisodiy komissiya); *IIKning doimiy qo'mitalari* (Nodavlat tashkilotlar bo'yicha qo'mita, Hukumatlararo muassasalar bilan muzokaralar olib borish bo'yicha qo'mita, Dastur va muvofiqlashtirish bo'yicha qo'mita); *IIKning maxsus organlari* (Informatika bo'yicha ochiq tarkibdagi maxsus ishchi guruh); *Hukumat ekspertlik boshqarmalar* (Jo'g'rofiy nomlar bo'yicha BMTning ekspertlar guruhi, Xavfli yuklarni olib o'tish va kimyoviy moddalarni global miqyosda kelishilgan tamg'alash va turkumlash tizimi bo'yicha ekspertlar qo'mitasi, Hisobga olish va hisobot berish xalqaro standartlari bo'yicha hukumatlararo ishchi ekspertlar guruhi); *Shaxsiy tarkibdagi Ekspertlik boshqarmalar* (Rivojlanish sohasidagi siyosat bo'yicha qo'mita, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita, Davlat boshqaruvi bo'yicha ekspertlar qo'mitasi, Soliq belgilash sohasidagi xalqaro hamkorlik bo'yicha ekspertlar qo'mitasi, Mahalliy/tub (joy) xalqlar masalalari bo'yicha doimiy forum); *Kengash bilan bog'liq organlar* (Ayollar holatini yaxshilash bo'yicha xalqaro o'quv va ilmiy-tadqiqot institutining Ijroiya kengashi, Aholini o'rganish sohasida BMT Mukofotini berish bo'yicha qo'mita, BMTning AIDS/HIV virusi bo'yicha qo'shma dasturining muvofiqlashtiruvchi kengashi, Narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha xalqaro kengash).

BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari:

1. Jahon pochta tashkiloti,

2. Jahon Banki guruhi:

- ❖ Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi,
- ❖ Xalqaro Moliya Korporatsiyasi,
- ❖ Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki,
- ❖ Sarmoyaviy Nizolarni Hal Etish bo'yicha Xalqaro Markaz,
- ❖ Sarmoyaviy Kafolatlar bo'yicha Ko'p Tomonlama Agentlik.

3. Jahon Meteorologik Tashkiloti,
4. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti,
5. Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti,
6. Jahon Turizm Tashkiloti,
7. Xalqaro Dengiz Tashkiloti,
8. Xalqaro Fuqaro Aviatsiyasi Tashkiloti,
9. Xalqaro Mehnat Tashkiloti,
10. Xalqaro Valyuta Fondi,
11. Xalqaro Elektr Aloqasi Tashkiloti,
12. Xalqaro Qishloq Xo'jaligini Rivojlantirish Fondi,
13. Ta'lim, Fan va Madaniyat Masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti,
14. Sanoat Taraqqiyoti bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti,
15. Oziq-Ovqat va Qishloq Xo'jaligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

BMT bilan bog'liq tashkilotlar:

1. Jahon Savdo Tashkiloti,
2. Xalqaro Atom Energiyasi Agentligi,
3. Yadroviy Sinovlarini Har Tomonlama Taqiqlash to'g'risidagi Shartnoma bo'yicha Tashkilot,
4. Kimyoviy Qurollarni Taqiqlash bo'yicha Tashkilot.

«Sovuq urush»ning tugashi Birlashgan Millatlar Tashkiloti uchun «yangi davr»ni belgilab berdi. BMTning tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha «global vazifasi/missiyasi» xalqaro mojarolarni hal etish va tinchlikni o'rnatish operatsiyalarini olib borish⁵, preventiv diplomatik choralarni qo'llash, qurolsizlantirish hamda OQQni tarqatmaslik va shu kabi masalalar bo'yicha tashkilotning yondashuvlarini qayta ko'rib chiqilishini zarur deb ko'rsatdi va taqozo etar edi.

BMT bipolyar qarama-qarshilikdan keyingi jahon tartibotini yangi sharoitiga «moslashishi» (adaptation) darkor bo'ldi. Ushbu davrdan boshlab kun tartibida tashkilot faoliyatining samaradorligiga keskinroq yondashildi. Tashkilotni isloh qilish to'g'risida keng bahsli munozaralar boshlandi. Oqibatda isloh qilish jarayonining ishtirokchilari o'rtasida islohotlarning ketma-ketligi/navbati, darajasi va mazmuni to'g'risidagi bahslar namoyon bo'ldi. Misol sifatida shuni aytib o'tish joizki, ilk islohotlar tashkilotning tabiiy taraqqiyotidan kelib chiqdi. 1963-yilda BMTning a'zolari 51 davlatdan 112 davlatgacha ko'paydi. Ushbu yili BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1991 (XVIII)-raqamli

⁵ Ruanda va Kongoda BMTning operatsiyalari barbod bo'lgan edi.

«Xavfsizlik Kengashi hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashida adolatli/odil vakillik to'g'risida masala» deb nomlangan rezolyutsiya qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiyaga ko'ra BMT Xavfsizlik Kengashining tarkibi o'n bitta a'zodan o'n beshtagacha kengaydi. Bundan buyon Xavfsizlik Kengashining o'nta nodoimiy a'zolari beshta doimiy a'zolarining «jentlmenlik kelishuvi» asosida emas, balki odil jo'g'rofiy vakillik asosida saylanadilar: Afrika va Osiyo davlatlaridan – beshta vakil, Sharqiy Yevropa davlatlaridan – bitta, Lotin Amerika davlatlaridan – ikkita, G'arbiy Yevropa va boshqa davlatlardan – ikkita vakildir. Biroq, ushbu tuzatish (amendment) BMT Xavfsizlik Kengashining beshta doimiy a'zolariga «tegishli bo'lgan» mustahkam veto huquqiga daxl qilmadi. «Radikal» islohotchilar veto huquqini bekor qilish va beshta doimiy a'zolarining huquq doirasini cheklash borasida o'z fikrlarini ilgari surdilar. BMT Xavfsizlik Kengashining tuzilmasini o'zgartirish bo'yicha o'z loyihalariga ega bo'lgan islohotlar jarayonining ishtirokchilari sifatida bir qatorda BMTning xilma-xil guruhlari hamda «kokuslari» (caucus) va alohida davlatlar jamlangan, bulardan: Janub mamlakatlari/«77lik Guruhi», «kofe klubi» (Italiya, Ispaniya, Turkiya, Malayziya hamda ayrim Skandinaviya va Lotin Amerika mamlakatlari), «Afrika guruhi» va h.k. Jumladan, misol sifatida ushbu loyihani keltirish mumkin: XX asrning 70-chi yillarida AQSH tomonidan ilgari surilgan «kvik-fiks» (quick fix) g'oyasi Xavfsizlik Kengashining an'anaviy tarkibiga Yaponiya hamda Germaniyani qo'shish rejasini belgilab bergan. BMT Xavfsizlik Kengashini isloh qilish tarafdorlarini to'rtta guruhga (mamlakatlar turkumiga) bo'lish mumkin: rivojlanayotgan, o'rtacha, XKning doimiy a'ziligiga da'vogarlar va «doimiy beshlik» (Permanent-5, P-5). «Doimiy beshlik»ning veto huquqi, veto huquqini qo'llash protsedurasini o'zgartirish, ehtimolli «yangi doimiy a'zolar»ning huquq miqdorini taqsimlanishi va ko'plab boshqa masalalar markaziy va dolzarb bo'lib qolmoqda.

BMTni isloh qilish umumiy masalalari quyidagilardan iborat⁶:

- ❖ Ayrim o'zgarishlar Tashkilotning «ichki» tuzilmasiga oid Bosh Kotiblar tomonidan ilgari surilgan;
- ❖ BMTni har tomonlama isloh qilinishining ilk tashabbuslari:

⁶ Qarang: Luck C.Ed. Reforming the United Nations: Lessons from a History in Progress//International Relations Studies and the United Nations Occasional Papers 2003 No. 1 – at <http://www.acuns.org/>; UN Reform Chronology/ Global Policy Forum – at <http://www.globalpolicy.org>.

- ❖ Butros Butros G'oliyning «Tinchlik uchun kun tartibi» («Agenda for peace») nomli ma'ruzasining e'lon qilinishi (1992-yil);
- ❖ Islohotlar bo'yicha beshta ishchi guruhlarining faoliyati boshlanishi (1993-1996-yy.);
- ❖ Butros Butros G'oliyning «Rivojlanish uchun kun tartibi» («Agenda for Development») nomli ma'ruzasining e'lon qilinishi (1994-yil);
- ❖ BMT rasmiy Web-sayti tashkil topishi va yuklanishi (1994-yil);
- ❖ Kofi Annanning «Birlashgan Millatlar Tashkilotini yangilash: islohotlar uchun dastur» («Renewing the United Nations: A Programme for Reform») nomli ma'ruzasining e'lon qilinishi (1997-yil);
- ❖ «Global kelishuv» loyihasi qabul qilinishi («Global Compact») (2000-yil);
- ❖ Mingyillik deklaratsiyasining qabul qilinishi (2000-yil);
- ❖ Tinchlikni o'rnatish bo'yicha komissiyaning va Inson huquqlari bo'yicha kengashning tashkil topishi (2004/05-yy.);
- ❖ 2005-yildagi BMT Sammitining yakuniy deklaratsiyasi (World Summit Outcome Document) imzolanishi;
- ❖ Kofi Annanning «Cheklanmagan erkinlik sari» («In Larger Freedom») nomli ma'ruzasining e'lon qilinishi (2005-yil);
- ❖ «Yangi» Bosh Kotib Pan Gi Munning tashabbuslari.

Ta'lim, Fan va Madaniyat Masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, UNESCO)

Tashkil topgan yili – 1946-yil.

Shtab-qarorgohi – Parij.

A'zo-davlatlar soni – 195 va 8 assotsiativ a'zo mamlakatlar (2013-y.).

Tashkilotning tarixi va muhim voqealari.

Ikkinchi Jahon urushi mobaynida natsist Germaniyasi tomonidan dahshatli hujumga uchragan va vatanlarini tark etishga majbur bo'lgan Yevropa mamlakatlarining siyosiy va madaniy elitalari (surgun qilingan hukumatlar) 1942-yili Buyuk Britaniyada London shahrida kengash o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Britaniya Kengashi homiyligida ushbu mamlakatlarning elitalari tashabbusi bilan sivilizatsiya, madaniyat va ta'lim, san'at va madaniyat yodgorliklari, raritetlarni saqlash maqsadidagi tashkilotni tuzish mo'ljallandi. 1942-yilda Ittifoqdosh-mamlakatlar ta'lim vazirlarining konferensiyasi (Conference of Allied Ministers of Education, CAME) bo'lib o'tdi. 1945-yil 16-noyabrda London shahrida bo'lib o'tgan «Ta'lim, Fan va Madaniyat Masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzish» mavzusiga bag'ishlangan konferensiyada (Conference for the Establishment of the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) 37 ishtirokchi-davlatlar tomonidan YUNESKO Nizomi qabul qilindi. 1946-yil 16-sentabrda YUNESKO ni tuzish bo'yicha tayyorlov komissiyasi London shahridan Parij shahridagi Kleber avenyusida joylashgan «Majestik» Oteliga ko'chib keldi. 1946-yil 20-noyabrdan 10-dekabrgacha Parij shahrida tashkilotning 1-chi Bosh konferensiyasi bo'lib o'tdi, keyinchalik konferensiyalar Mexikoda (1947-yil); Beyrutda (1948-yil); Florensiyada (1950-yil); Parijda (1952-1953-yy.); Montevideoda (1954-yil); Nyu-Dehlida (1956-yil); Parijda (1957-1958-yy.) o'tkazildi. 1958-yil 3-noyabrda Bosh konferensiyaning 10-uchrashuvida Parij shahrida Fontenua maydonida YUNESKO qarorgohining bosh binosini tantanali ochilishi bo'lib o'tdi.

YUNESKO Nizomi – Tashkilotning falsafasi.

O'z xalqlari nomidan ishtirokchi-davlatlar hukumatlari e'lon qiladilar⁷:

⁷ Qarang: Руководство Генеральной Конференции. – ЮНЕСКО, 2002. – на <http://www.unesco.org/>

- ❖ urush haqida fikrlar insonlarning aqlida paydo bo'ladi, shuning uchun tinchlikni saqlash g'oyasini, avvalambor, insonlarning ongiga singdirish darkor;
- ❖ o'zaro tushunmovchilik insoniyat tarixi mobaynida xalqlar o'rtasidagi gumondorlik va ishonmaslik tarqalishiga sabab bo'ldi, natijada ularning kelishmovchiliklari ko'pincha urushga olib kelardi;
- ❖ teng huquqlik va insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, inson qadr-qimmatiga hurmat bildirish demokratik tamoyillaridan voz kechish natijasida hamda jaholat, zulmat va xurofotlarga asoslangan irq va insonlarni notengligi haqidagi ta'limot o'rnatilishi natijasida endigina tugagan dahshatli jahon urushi boshlanishiga olib keldi;
- ❖ inson qadr-qimmatini qo'llab-quvvatlash uchun barcha insonlar orasida adolat, erkinlik va tinchlikka asoslangan ta'lim va madaniyatni keng tarqalishi darkordir;
- ❖ hukumatlarning faqatgina iqtisodiy va siyosiy kelishuvlariga asoslangan tinchlik xalqlarning samimiy, mustahkam va hamjihat madadiga ega bo'la olmaydi, tinchlik insoniyatning intellektual va axloqiy hamjihatligiga asoslanishi darkor.

Tashkilotning maqsad va majburiyatlari⁸:

1. Barcha xalqlar uchun, irqi, jinsi, tili yoki dinidan qat'i nazar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida qayd etilgan asosiy erkinliklarini, inson huquqlarini, qonunchilikni, adolatni har tomonlama hurmatini ta'minlash maqsadida ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi xalqlar hamkorligini kengaytirish yo'li bilan tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashish vazifasini Tashkilot o'z oldiga belgilagan.

2. Ushbu maqsadda Tashkilot:

a) barcha ommaviy axborot vositalari bilan foydalangan holda, xalqlarni yaqinlashishi va o'zaro tushunishiga ko'maklashadi va bu maqsadda so'z va tasvir yo'li bilan g'oyalarning erkin tarqalishini foydali deb hisoblagan xalqaro kelishuvlarni tuzishni tavsiya etadi;

b) ma'rifatchilik faoliyatini kengaytirish maqsadida imkon qidirgan a'zo-davlatlarning hamkorligi asosida xalq ta'limini rivojlanishini va madaniyatni tarqalishini rag'batlantiradi;

c) intellektual faoliyatning barcha sohalarida xalqlarning hamkorligini rag'batlantirgan holda; manfaatdor davlatlarga tegishli xalqaro konvensiyalarni qabul qilishni tavsiya etgan holda;

⁸ Qarang: Руководство Генеральной Конференции. – ЮНЕСКО, 2002. – на <http://www.unesco.org/>

insoniyatning jahon merosi bo'lmish kitoblar, san'at asarlari, tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega yodgorliklarni saqlanishi va muhofazasi uchun g'amxo'rlik qilgan holda, bilimlarning saqlanishi, kengayishi va tarqalishiga yordam beradi.

3. A'zo-davlatlarining ta'lim tizimlari va madaniyati mustaqilligi, daxlsizligi va o'ziga xosligi saqlanishini ta'minlash borasida Tashkilot ularning ichki vakolatiga tegishli har qanday aralashishdan voz kechadi.

YUNESKOning tashkiliy tuzilmasi⁹.

Bosh Konferensiya Tashkilotning barcha a'zo-davlatlari vakillarini o'z ichiga qamrab olgan. Har bir a'zo-davlatning hukumati beshdan ortiq bo'lmagan vakillarini tayinlaydi. Ushbu vakillar milliy komissiya yoki ta'lim, fan va madaniyat muassasalari tomonidan tanlangandir. Bosh Konferensiyaning yig'ilishi ikki yilda bir marta o'tkaziladi, asosiy ishtirokchilari – a'zo-davlatlar va a'zo-xodimlar vakillari bo'lib, unda YUNESKOga a'zo bo'lmagan davlatlar, hukumatlararo tashkilotlar, fondlar va nohukumat tashkilotlar kuzatuvchilar sifatida qatnashadilar. Bosh Konferensiyada har bir a'zo-davlat, aholisining soni va byudjetga qo'shgan to'lov miqdoridan qat'i nazar, bir ovozga ega. YUNESKO faoliyatining umumiy yo'nalishini Bosh Konferensiya belgilaydi. Bosh Konferensiya YUNESKOning ikki yillik byudjeti va dasturini qabul qiladi. Bosh Konferensiya Ijroiya Kengashi a'zolarini to'rt yilda bir marotaba saylaydi va Bosh direktor shaxsini tayinlaydi. Bosh Konferensiyaning ishchi tillari quyidagilardir: ingliz, arab, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari.

Ijroiya Kengashi YUNESKOning boshqaruvchi organlaridan biridir. Ijroiya Kengashi Bosh Konferensiyaning sessiyalariga va ularning kun tartiblariga tayyorgarlik ko'radi va qabul qilgan qarorlarini amalga oshirilishini nazorat qiladi. Ijroiya kengashi vazifalari va majburiyatlari Protsedura qoidalari yoki Bosh Konferensiya qabul qilgan Direktivalar va YUNESKOning Nizomida belgilab berilgan. Kengashning 58 a'zosi Bosh Konferensiya tomonidan tayinlanadi. Nomzodlar xilma-xil madaniyatlarga mansubligini va jo'g'rofiy vakilligini hisobga olgan holda saylanadilar. Ijroiya Kengashining har bir a'zosi o'zini bir vakilini tayinlaydi. Kengashning yig'ilishi bir yilda ikki marta o'tkaziladi.

Kotibiyat Bosh direktor va zarur bo'lgan xodimlardan iborat. Bosh direktor nomzodi Ijroiya Kengashi tavsiyasiga ko'ra Bosh Konferensiya tomonidan to'rt yillik muddatga tasdiqlanadi. Bosh

⁹ Qarang: Руководство Генеральной Конференции. – ЮНЕСКО, 2002. – на <http://www.unesco.org/>

direktor ikkinchi to'rt yillik muddatga (uchinchisi man etilgan holda) qayta tasdiqlanishi mumkin. Bosh direktor Tashkilotning bosh mansabdor shaxsidir.

Milliy komissiyalar (milliy hamkorlik organlari).

Tashkilotning har bir a'zo-davlati uchun ta'lim, fan va madaniyat markaziy muassasalari va hukumat vakillaridan iborat bo'lgan milliy komissiyaning tuzilishi imkon qadar ijobiydir. Ushbu komissiyalar yoki milliy hamkorlik organlari Bosh Konferensiyada o'z mamlakatlari delegatsiyalariga, Ijroiya kengashidagi mamlakatlarning vakillariga, o'z hukumatlarida YUNESKO masalalari bo'yicha konsultativ vazifalarni bajaradilar.

YUNESKO tomonidan tashkillashtiriladigan *kengashlar* ikki guruhga bo'linadi: birinchisi – vakillik xarakteriga ega kengashlar, ikkinchisi esa – vakillik xarakteriga ega bo'lmagan kengashlardir. Birinchi guruhdagi kengashning asosiy ishtirokchilari davlatlar yoki hukumatlar, hukumatlararo tashkilotlar yoki xalqaro nohukumat tashkilotlar bo'lib, ikkinchi guruhdagi kengashda esa shaxsiy sifatiga ko'ra davlat yoki tashkilot vakillari ishtirok etadilar.

Kengashlar toifasi.

Vakillik xarakteriga ega YUNESKO kengashlari uch toifaga bo'linadi, bular:

- a) davlatlarning xalqaro konferensiyalari (I toifa);
- b) davlatlarning xalqaro konferensiyalaridan tashqari, hukumatlararo xarakteriga ega boshqa kengashlar (II toifa);
- c) nohukumat tashkilotlar (III toifa).

Vakillik xarakteriga ega bo'lmagan YUNESKO kengashlari besh toifaga bo'linadi, bular:

- a) xalqaro kongresslar (IV toifa);
- b) konsultativ qo'mitalar (V toifa);
- c) ekspertlar qo'mitalari (VI toifa);
- d) malaka oshirish va tayyorlash bo'yicha kurslar va seminarlar (VII toifa);
- e) simpoziumlar (VIII toifa).

YUNESKO xalqaro nohukumat (mintaqaviy va mintaqalararo) tashkilotlari bilan rasmiy munosabatlarni o'rnatishi mumkin. Ushbu tashkilotlarning tuzilmasi, maqsadlari va YUNESKO bilan hamkorligining xarakteridan kelib chiqqan holda bu munosabatlar ikki toifaga bo'linadi: konsultativ va hamkorlik. Ushbu munosabatlarning muddati olti yildan iborat bo'lib, keyinchalik yangilanishi mumkin.

Klaster byurosi.

Klaster byurosi mamlakatlar guruhini qamrab oladi va joylarda tashkilotning markaziy bo'linmasi bo'lib hisoblanadi. Klaster byurosi atrofida milliy va mintaqaviy byurolar shakllanadi. 148 a'zo-davlatlardan iborat bo'lgan 27 klaster byurosi YUNESKO Kotibiyati tarmog'ining tayanch tuzilmalari sifatida tashkil topgan. Klaster byurosi o'z klasteriga ega a'zo-davlatlar o'rtasida, BMT tizimidagi boshqa muassasalari bilan, har bir a'zo-davlatni YUNESKO Kotibiyatining tarmoqlari bilan, har bir a'zo-davlatni xalqaro hamjamiyat bilan va boshqa o'zaro munosabatlarni ta'minlaydi.

Milliy byuro.

Klaster byurosi atrofida milliy byurolar shakllangan. YUNESKO Kotibiyati tarmoqlarida 21 milliy byuro faoliyat olib boradi. Har bir milliy byuro YUNESKOga a'zo bitta davlatga xizmat qiladi. Mazkur milliy byurolarining ochilishi maxsus mamlakatlar uchun belgilangan, masalan, ulardan to'qqiztasi aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlarda, boshqalari mojarolardan keyingi vaziyat bilan bog'liq yoki o'tish davrini kechayotgan mamlakatlardir.

YUNESKO faoliyati tarixidan ahamiyatli sanalari:

1972-yilda YUNESKO «Umumjahon tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida Konvensiya»ni (Convention for the protection of the world cultural and natural heritage) qabul qildi.

1976-yili Umumjahon merosi Qo'mitasi ta'sis etildi.

1978-yili Umumjahon merosi ro'yhatiga birinchi ob'yektlar kiritildi.

1992-yilda O'rnini to'ldirib bo'lmaydigan qimmatbaho kutubxonalar va arxiv fondlarini (shu jumladan, ovoz, kinematografiya, televizion arxivlarni) muhofaza qilish uchun YUNESKO «Jahon xotirasi» dasturini ta'sis etdi.

1998-yil 4-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi «Sivilizatsiyalar o'rtasidagi dialog» dasturini ta'sis etdi va dastur bo'yicha asosiy vazifalarni bajarishga YUNESKOga topshirdi.

2001-yili Bosh Konferensiya Madaniy xilma-xillik to'g'risida YUNESKOning umumiy deklaratsiyasini qabul qildi.

2002-yili «YUNESKODA Falsafa kuni» («Philosophy Day at UNESCO») ta'sis etildi, 2005-yili uning institutsionallashuvi belgilanib, «Jahon falsafa kuni» («World Philosophy Day») deb nishonlana boshlandi.

2009-yili Bosh Konferensiya 10-Bosh direktorni sayladi. YUNESKO tarixida birinchi marta ayol kishi Irina Bokova (Bolgariya) Bosh direktor lavozimiga tayinlangan.

Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)

Tashkil topgan yili – 1949-yil.

Shtab-qarorgohi – Bryussel.

Ittifoqdosh davlatlar soni – 28 (2013-y.)

Qarorlarni qabul qilish tamoyili – konsensus.

Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan so'ng Yevropada yangi xavfsizlik tizimining shakllanishi, «Sharq-G'arb» yo'nalishi bo'yicha mafkuraviy va tizimli qarama-qarshilik vujudga kelishi, mintaqa mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy bog'liqligi va o'zaro tobeligi sharoitida 1948-yilda Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya va Fransiya mamlakatlarining Tashqi ishlar vazirlari tomonidan «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlik hamda kollektiv mudofaa to'g'risida Bryussel shartnomasi» imzolandi. Ushbu yili AQSH Senati tomonidan «Vandenberg rezolyutsiyasi» qabul qilindi. Mazkur rezolyutsiya AQSHning mintaqaviy va ko'p tomonlama kelishuvlarda ishtirok etish imkoniyatini e'lon qildi hamda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'ida hukmron bo'lgan Yevropa mamlakatlari bilan doimiy harbiy va siyosiy ittifoqlarda ishtirok etmaslik tamoyilidan AQSHning «yiroqlashishini» belgilab berdi. Mazkur rezolyutsiya qabul qilinganidan bir oy o'tgach, AQSH, Kanada va Bryussel shartnomasi ishtirokchilari Vashingtonda Shimoliy Atlantika mintaqasining mudofaasi to'g'risida muzokaralar olib bordilar. Ushbu vaziyat Yevropa davlatlarining AQSH bilan strategik hamkorlikka qo'proq yo'naltirilganligi hamda Yevropa mamlakatlari o'rtasida raqobatli munosabatlarning cheklanganligi va shunga yarasha, kuchlar muvozanatining saqlanib qolinishi, AQSH shafeligida Yevropa «xavfsizlik soyaboni»ni tashkil etish g'oyasining kuchliligini guvohidir.

1949-yil 4-aprelda Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Portugaliya, Daniya, Islandiya, Norvegiya, AQSH va Kanada mamlakatlarining hukumatlari Shimoliy Atlantika Alyansini tuzish to'g'risida Vashington shartnomasini imzoladilar¹⁰. 1949-yil 24-avgustda mazkur shartnoma kuchga kirdi. Vashington shartnomasiga binoan tashkilotning maqsadlari deb, quyidagilar e'lon qilindi: Shimoliy Atlantika mintaqasida barqarorlikni va farovonlikni ta'minlash va mustahkamlash; kollektiv mudofaani tashkil etish hamda

¹⁰ Bugungi kunda NATO a'zolarining soni 28 davlatdan iborat.

xavfsizlikni va tinchlikni saqlash; demokratiya, shaxs erkinligi, qonuniylik tamoyillariga asoslangan holda NATO ittifoqdosh mamlakatlarning xalqlari sivilizatsiyasi, umumiy merosi, erkinliklarini himoyalashdir.

«Sovuq urush» davrida tashkilotning faoliyati Shimoliy Atlantik ittifoqining strategik konsepsiyalari (yo'riqnoma hujjatlar) asosida belgilangan bo'lib, Sovet Ittifoqi tomonidan tajovuz va agressiyani «ushlab turishga» qaratilgandir. «Sovuq urush» yillarida Shimoliy Atlantik Kengash va Mudofaa qo'mitasi tomonidan to'rtta «maxfiy» konsepsiyalar qabul qilingan:

Birinchi strategik konsepsiya 1960-yil 6-yanvarda qabul qilingan bo'lib, o'z maxsus nomiga ega – «Shimoliy Atlantik mintaqasi mudofaasining strategik konsepsiyasi» (Mudofaa qo'mitasining «6/1» raqamli hujjati + ikkita qo'shimcha hujjat);

Ikkinchi strategik konsepsiya «Shimoliy Atlantik makonini mudofaasining strategik konsepsiyasi» («3/5» raqamli HQ hujjati /yakuniy tahririyatda/) deb nomlangan bo'lib, 1952-yil 3-dekabrda qabul qilingan;

Uchinchi strategik konsepsiya «NATO a'zo-davlatlari hududlarini mudofaasining umumiy strategik konsepsiyasi» («14/2» raqamli HQ hujjati /yakuniy tahririyatda/) deb nomlangan bo'lib, 1957-yil 23-mayda qabul qilingan;

To'rtinchi strategik konsepsiya «Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotining a'zo-davlatlari hududlarini mudofaasining umumiy strategik konsepsiyasi» («14/3» raqamli HQ hujjati) deb nomlangan bo'lib, 1968-yil 16-yanvarda qabul qilingan.

Yangi konsepsiyani qabul qilinishi yoki oldingi konsepsiyaga qo'shimchalar kiritilishi va keyingi konsepsiyani tasdiqlanishi bir necha sabablardan va hodisalardan kelib chiqadi: Al'yansning tuzilmaviy o'zgarishlari (masalan, Turkiya va Gretsiya davlatlari 1952-yili Alyansga a'zo bo'lganlari); rahbariyat tomonidan strategik qarorlarning yangilanishi, harbiy tuzilmalarning jangovarlik qobiliyatiga hamda «sovuq urush» davridagi NATO kuchlarining soniga yangicha baho berilishi va h.k. Yuqorida qayd etilgan konsepsiyalar o'z ichiga bir nechta masalalarni qamrab olgan, bulardan eng muhimi – mudofaa rejalashtirilishi sohasidagi ko'rsatmalar va NATO xavfsizligi masalalari bilan bog'lik Shimoliy Amerika va Yevropa ikki «qanoti»dan (Wings) iborat bo'lgan hamkorlik yo'nalishlaridagi dasturlardir.

Bu borada bir misol keltirish mumkin: 1957-yildagi strategiya «G'uj/yopirilma javoban zarba» (massive counter-offensive) konsepsiyasini qamrab olgan bo'lib, NATO harbiy-havo kuchlarining hal qiluvchi ahamiyatiga qaratilgandir. Birlashgan HHK tuzilmasi hujumkor zarba beruvchi kuchlar ahamiyatini e'tiborga olgan holda raketa va aviatsiyaning muvozanatini ham to'g'ri hal qilishi kerak. Dushmanning kutilmagan dastlabki hujumiga qarshilik ko'rsatilishi va tezkor javoban zarba berilishi uchun harbiy havo kuchlarining modeli va joylashuvi to'g'ri tanlanishi kerak. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi – NATO kuchlarining havodagi ustunligini ta'minlash va sovet hujumiga, qo'qqisdan qilingan hujumga, hattoki NATO makonidan «aybsiz uchib o'tish»ga, dushmanning qisman harakatiga ham tezkor zarba («javob») berishdir¹¹.

«Sovuq urush» davri tugaganidan so'ng 1991-yili, 1999-yili va 2010-yili qabul qilingan Strategik konsepsiyalar (SK) («maxfiy» konsepsiyalardan farqli ravishda) «ommabop uslubida» tuzilgan hujjatlar sifatida qabul qilinadi. Avvalgi konsepsiyalarning shakli va mazmunidan farqli ravishda tuzilgan «yangi» konsepsiyalar bir tomonlama konfrontatsion g'oyadan xolisdir, biroq, Vashington shartnomasida belgilangan asosiy tamoyillar (shartnomaning 5-moddasiga binoan kelishilgan o'zaro majburiyatlar) hamon saqlanib kelinmoqda.

1991-yilda qabul qilingan Strategik konsepsiya kelgusi o'n yil muddatga shartli maqsad va vazifalar sharhiga, undan ham kuchli xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy yondashuvlarga, mudofaa uchun yo'riqnoma tamoyillariga qaratilgandir. Konsepsiyaga ko'ra, NATO duch kelgan xavfsizlik tahdidlari va xavf-xatarlari o'tmishdagilaridan tabiatan farqlidir. NATOning Yevropadagi barcha frontlariga bo'lgan qo'shma ko'p tomonlama shiddatli hujum tahdidi bartaraf etilgani tufayli, ushbu tahdid Alyansning strategiyasi markazida emasdir. O'tmishdagi yakka hukmron tahdidning aksariyati bo'lgan Alyansning xavfsizligiga hozirgi kundagi xavf-xatarlar har taraflama va ko'p qirrali bo'lib qolmoqda va ularni anglash ancha mushkuldir¹².

¹¹ Qarang: Measures to implement the Strategic concept / MC 48/2 (Final Decision) 23 May 1957. in **NATO Strategy Documents 1949 – 1969.**/ Edited by Dr. Gregory W. Pedlow, Chief, Historical Office, Supreme Headquarters Allied Powers Europe – at <http://www.nato.int/>

¹² Qarang: The Alliance's New Strategic Concept agreed by the Heads of State and Government participating in the Meeting of the North Atlantic Council (1991) – Part I - the Strategic Context. Security challenges and risks. Paragraphs 7, 8 – at <http://www.nato.int/>

1991-yildagi Kosepsiyaning strategik kontekstining tahlili natijasida quyidagi holatlar aniqlandi: 1) yangi «boshlangan» xalqaro muhit xavfsizlikni ta'minlash borasidagi maqsad va vazifalarni (burchlarni) o'zgartirmaydi; 2) o'zgargan muhit xavfsizlikni yanada samarali ta'minlashga yondashadigan strategiyani ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda¹³. Xavfsizlikni ta'minlash borasidagi «keng yondashuv» uchta «xavfsizlik siyosatining o'zaro mustahkamlovchi tarkibiy qismi»dan iborat: dialog, kooperatsiya (qo'shma harakatlar), kollektiv mudofaa qobiliyatining samarasini mustahkamlash¹⁴.

«Sovuq urush natijasida hamkorlik g'oyasi/konsepsiyasi asosan tartibni o'rnatishda/saqlashda siyosiy qurol sifatida NATOga xizmat qildi»¹⁵. 1991-yilning Strategik Konsepsiyasi qabul qilinganidan so'ng Shimoliy Atlantika Hamkorlik Kengashi (SHAHK) ta'sis etildi. 1997-yili SHAHK Yevro-Atlantik Hamkorlik Kengashi (YEAHK) nomiga o'zgardi. SHAHK «ko'p tomonlama konsultatsiyalar va hamkorlik uchun qo'shma forum» sifatida xizmat qilmoqda. 1994-yili Bryussel shahrida bo'lib o'tgan NATO sammiti NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» (TYH) – «Partnership for Peace» (PfP) dasturining «yuklanishini» belgilab berdi. Ushbu dastur SHAHK doirasidagi hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (YEXHT) ishtirokchi-mamlakatlarini hamkorlikka taklif etadi. Ta'kidlash joizki, TYH dasturi NATO a'zoligiga da'vogar mamlakatlar hamda Alyansning «mas'uliyati ostidagi an'anaviy hududidan tashqari» bo'lgan mamlakatlar bilan yakka tartibdagi (individual rejaga asoslangan) ikki tomonlama hamkorlikni olib boradi.

TYH (PfP) infratuzilmasi quyidagilarni qamrab olgan¹⁶:

¹³ Qarang: The Alliance's New Strategic Concept agreed by the Heads of State and Government participating in the Meeting of the North Atlantic Council (1991) – Part I - the Strategic Context. - Security challenges and risks. Paragraph 14 – at <http://www.nato.int/>

¹⁴ Ibid., Part III - A Broad Approach To Security. – Protecting peace in a new Europe. Paragraph 24 – at <http://www.nato.int/>

¹⁵ Kamp Karl-Heinz. Global Partnership: A New Conflict Within NATO? – Analysen und Argumente der Konrad-Adenauer-Stiftung. No. 29/2006. – at <http://www.kas.de/> – Cited in: Mölder Holger. «The evolution of NATO's Partnerships strategy – democratic peace or clash of civilizations?» – Paper prepared for the 6-th Pan-European Conference on International Relations in Turin from 12 to 15 September 2007 (Session 1-23: Cooperation and Conflict in Transatlantic Relations). – P. 9. – at http://turin.sgir.eu/uploads/Molder-the_evolution_of_nato_1.pdf

¹⁶ Qarang: NATO Handbook. – Brussels: NATO Public Diplomacy Division, 2006. – at <http://www.nato.int/>; Mölder Holger. The evolution of NATO's Partnerships strategy – democratic peace or clash of civilizations? Paper prepared for the 6th Pan-European Conference on International Relations in Turin from 12 to 15 September 2007 (Session 1-23: Cooperation and Conflict in Transatlantic Relations). – at http://turin.sgir.eu/uploads/Molder-the_evolution_of_nato_1.pdf

- ❖ Hamkorlik harakatlarining individual rejasi (Individual Partnership Action Plan, PAP) orqali kooperatsiya qilish;
- ❖ Harbiy-siyosiy tuzilma (Political-Military Framework), Terrorizmga qarshi kurashish borasida hamkorlik harakatlarning rejasi (PAP on Terrorism) orqali xalqaro tinchlikni o'rnatish bo'yicha operatsiyalarda ishtirokni ta'minlash va hamkorlik qilish;
- ❖ Xavfsizlik siyosatining sharhi va rejalashtirilishi (Planning and Review Process), «foydalanish imkoniyatlari» tamoyilini (Operational Capabilities Concept) qo'llash orqali harbiy operativ (bevosita) qo'shma loyihalarni ta'minlash;
- ❖ O'quv mashg'ulotlar va ta'lim olishni mustahkamlash dasturi (Training and Education Enhancement Programme) orqali ta'lim yo'nalishida mavjud bo'lgan kamchiliklarni oldini olish;
- ❖ Mudofaa institutlarini barpo etish bo'yicha hamkorlik harakatlarining rejasi (PAP on Defence Institution Building), NATO-TYH maqsadli fondlari hamda texnikaviy ta'minlanish va ta'minot masalalari bo'yicha NATOning Agentligi orqali mudofaa (harbiy) sohasidagi islohotlarni amalga oshirish.

YEAHK doirasidagi hamkorlikning ko'p tomonlama formati «hozirgi kundagi» dolzarb bo'lgan masalalar va uzoq muddatli masalalar bo'yicha shoshilinch/muddatli konsultatsiyalar¹⁷, NATOning barcha a'zo va hamkor-davlatlari ishtirokidagi yirik majlislar hamda tarkibiy jihatidan cheklanmagan katta bo'lmagan ishchi guruhlar va *ad hoc* (maxsus) guruhlar yig'ilishlarining olib borilishi orqali amalga oshiriladi. 2005-yili YEAHK doirasidagi hamkorlik YEAHK Xavfsizlik forumi qo'shilishi bilan kengaydi. Ushbu Forum doirasida YEAHK davlatlar va hukumatlar rahbarlari, tegishli vazirlik va muassasalarning boshliqlari, nohukumat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati vakillari, parlamentariylar ishtirokini ta'minlanishini o'z oldiga maqsad deb ko'rgan.

TYH va YEAHK doirasidagi NATOning ittifoqdosh-mamlakatlari va hamkorlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni ikkita muhim yo'nalish mustahkamlaydi: 1) «keng kiritilganlik» (inclusiveness); 2) «o'zini o'zi anglash mexanizmlari» (mechanisms for self-differentiation) deb ataladigan yo'nalishlardir. Birinchi

¹⁷ Inqirozlarning boshqaruvi hamda tinchlikni saqlash borasidagi operatsiyalar; mintaqaviy masalalar; qurollantirishni nazorat qilish va OQQni tarqatmaslik muammosi bilan bog'liq masalalar; terrorizmga qarshi kurashish; mudofaa masalalari (rejalashtirish, byudjetni tuzish, siyosat va strategiya); favquloddagi (fuqarolik) vaziyatni rejalashtirish hamda favquloddagi hodisalarni oldini olish; harbiy-texnikaviy hamkorlik; yadroviy xavfsizlik; harbiy-havo harakatlarini boshqarish; shuningdek, ilmiy hamkorlik.

yo'nalish barcha ittifoqdosh-mamlakatlar va hamkorlar uchun siyosiy konsultatsiyalar va amaliy hamkorlik borasida teng ravishdagi imkoniyatlarning mavjudligini, ikkinchisi esa – hamkor davlatlarning individual tarzda kooperatsiya sohasi va darajasini tanlash huquqiga egaligini bildiradi¹⁸.

1999-yildagi Strategik Konsepsiya Bolqon yarim orolidagi davom etib kelayotgan etnik mojarolar, Ommaviy Qirg'in Qurollari (OQQ) tarqalishining tahdidi ostida hamda NATOning «sovuq urush»dan keyingi xalqaro tartibotga «moslanishi» (adaptation) sharoitida qabul qilingan. 1991-yildagi Konsepsiyada belgilangan *quyidagi vazifalarga*: 1) barqaror xavfsizlikning hayotiy muhim asosini (poydevorini) ta'minlash; 2) ittifoqdosh mamlakatlar orasida konsultatsiyalar o'tkazilishi uchun zaruriy transatlantik forum sifatida majburiyatlarni bajarish; 3) NATOning biror-bir a'zo-davlatiga qaratilgan har qanday tajovuzga qarshi mudofaa va «ushlab turish» (containment) mexanizmlarini qo'llash kabi maqsadlarga – 1999-yili qabul qilingan Strategik Konsepsiya *qo'shimcha vazifalarni kiritdi*, bulardan: 4) inqirozlarning boshqaruvini amalga oshirish; 5) Yevroatlantika mintaqasidagi boshqa davlatlar bilan keng qamrovli sherikchilik, dialog va hamkorlikni ta'minlashdir. Konsepsiyada «Yevroatlantika mintaqasi va uning atrofidagi noaniqlik va beqarorlik hamda Alyansning “chet hududlarida” mintaqaviy inqirozlarning jadal rivojlanish ehtimoli» – xavfsizlikning xavf-xatarlari deb hisoblanadi. Konsepsiyada qayd etilganidek, «Yevroatlantika mintaqasi va uning atrofidagi bir nechta mamlakatlar jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarga duch kelmoqdalar. Etnik va diniy raqobat, hududiy nizolar, islohotlarni o'tkazilishida barbod etilgan urinishlar, inson huqularining buzilishi hamda davlatlarning tarqalib ketishi mahalliy va mintaqaviy beqarorlikka olib keladi. [...] OQQ va uni yetkazib berish vositalarining tarqalishi hamon jiddiy xavotirlikning da'vosi bo'lib qolaveradi. [...] Qurol-yarog' ishlab chiqarishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologiyalarining global tarqalishi yangilangan harbiy quvvatlarga bo'lgan ehtiyojni kengaytirib beradi. Ushbu yangilangan harbiy quvvatlar yuqori texnologiyaga ega hujumkor va mudofaa havo, er va dengiz tizimlarini, qanotli raketalar va

¹⁸ Qarang: NATO Handbook. – Brussels: NATO Office of Information and Press, 2001. – P. 20. – at <http://www.nato.int/>

boshqa ilg'or qurollarni qo'lga kiritish uchun raqibga imkoniyat yaratadi»¹⁹.

1999-yili qabul qilingan Strategik Konsepsiyada Shimoliy Atlantika Alyansi Yevropa Ittifoqining Yagona mudofaa va xavfsizlik siyosatini butunlay qo'llab-quvvatladi. Ushbu siyosat 1996-yili Berlin shahrida qabul qilingan NATO va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlikning asosiy mexanizmlarini belgilovchi kelishuvlarning davomidir.

2010-yili qabul qilingan NATOning Yangi Strategik Konsepsiyasi avvalgi Konsepsiyalar kabi o'zgaruvchan xavfsizlikning xavf-xatarlari va tahdidlariga keng tushuncha berish konsepsiyasiga qaratilgan. 2010-yildagi SKda xavfsizlik kafolatlarning tarkibiy qismiga aloqador uchta muhim vazifa namoyon etilgan: kollektiv mudofaa, inqirozlarning boshqaruvi, hamkorlikka asoslangan xavfsizlik. Alyans hamon islohotlar, modernizatsiya va transformatsiya uzluksiz jarayonlariga sodiq dir.

Mazkur Konsepsiyada Alyansning xavfsizligini ta'minlovchi omillar kun tartibida ko'rsatilgandir²⁰, bulardan:

- ❖ inkor etib bo'lmaydigan oddiy qurollarning tahdidi;
- ❖ yadroviy qurol va OQQning boshqa turlarini tarqalishi tahdidi;
- ❖ NATO mamlakatlarining fuqarolari xavfsizliklariga to'g'ridan-to'g'ri tahdid sifatida namoyon bo'lgan terrorizm;
- ❖ beqarorlik yoki NATO chegarasidan tashqari bo'lgan mojarolar;
- ❖ kiberhujum;
- ❖ xalqaro savdo, energetika xavfsizligi va iqtisodiy farovonlik uchun zarur bo'lgan xayotiy muhim kommunikatsiyalaridan, transport va tranzit yo'llaridan qaramlik;
- ❖ qo'poruvchilik harakatlar va energiya ta'minotini «uzib qo'yish» tahdidi;

¹⁹ Qarang: The Alliance's Strategic Concept. Approved by the Heads of State and Government participating in the meeting of the North Atlantic Council in Washington D.C. (1999). – Part I – The Purpose and Tasks of the Alliance. Paragraph 10., Part II – Strategic Perspectives. – Security challenges and risks. Paragraphs 20, 22, 23 – at <http://www.nato.int/>

²⁰ Qarang: Активное участие, современная оборона. Стратегическая концепция обороны и обеспечения безопасности Членов Организации Североатлантического Договора. Утверждена Главами Государств и Правительства в Лиссабоне. (2010) – Брюссель: Отдел общественной дипломатии НАТО, 2010. – на <http://www.nato.int/>

- ❖ lazer qurolini, radioelektron kurashning uslublari va koinotga chiqish uchun to'sqinlik yaratadigan texnologiyalarni ishlab chiqish;
- ❖ muhim ekologik va resurs cheklanishlari (inson sog'lig'iga xatarlar, iqlim o'zgarishi, suv yetishmasligi hamda doimiy energetik ehtiyojlarning o'sishi).

Qaror qabul qilish va siyosiy konsultatsiyalar tizimi.


NATO doirasidagi hamkorlik konsensus va siyosiy konsultatsiyalar qo'llanilishiga asoslangan qaror qabul qilish tamoyilini belgilab berdi. Siyosiy konsultatsiyalar yakuniy rezolyutsiya va so'nggi hujjat qabul qilinishigacha qo'llaniladi. Konsensusga asoslangan qarorlar qabul qilish jarayoni NATOning barcha a'zo-davlatlari uchun o'zaro maqbul tamoyil deb hisoblanadi.

Mavzu bo'yicha tayyorlangan taqdimotning ayrim lavhalari.

1-rasm. NATOning kengayishi.



2-rasm. NATO va hamkor mamlakatlari.



2a-rasm. NATO bilan hamkor mamlakatlarning ro'yxati.

YEVRO-ATLANTIK HAMKORLIK KENGASHI	O'RTA YER DENGIZI DIALOGI	HAMKORLIKKA QARATILGAN STAMBUL TASHABBUSI	MULOQOT (KONTAKT) MAMLAKATLARI
TYH (PfP) dasturi ishtirokchi-mamlakatlari Avstriya, Finlyandiya, Irlandiya, Malta, Shvetsiya, Shveysariya, BvaG, Makedoniya, Montenegro, Serbiya, Rossiya, Belorussiya, Gruziya, Ukraina, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston.	Jazoir, Misr, Isroil, Iordaniya, Mavritaniya, Marokash, Tunis.	Bahrayn, Qatar, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari.	Avstraliya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Yangi Zelandiya.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT)

Tashkil topgan yili – Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi (YEXHK) – 1975-yil, YEXHT – 1994-yil.

Shtab-qarorgohi – Vena.

Ishtirokchi-davlatlar soni – 57 (2013-y.)

XX asrning 60-chi yillar oxiri – 70-chi yillar boshlarida Sharq va G'arb bloklari o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik o'rnini g'arbiy adabiyotda «detant» («Détente») nomi bilan mashhur bo'lgan, jahon siyosatidagi keskin «vaziyatning yengillashtirilishi» deb nomlangan davr «egallagan». Xalqaro siyosatdagi «yengillashtirilish» davri bir nechta omillar va voqealar tufayli vujudga keldi. Bulardan katta ahamiyatga ega bo'lgan omillar va voqealar quyidagicha:

- ❖ NATO doirasida 1967-yilda qabul qilingan «Armel ma'ruzasi» (Harmel Report);
- ❖ Germaniya Federativ Respublikasining Kansleri Villi Brandtning «yangi sharqiy siyosati» (*neu Ost-Politik*);
- ❖ ikkita qarama-qarshi davlatlar munosabatlarida «tinchlik» muhitini – nisbiy osoyishtalik davrini – belgilab bergan 1972-yildagi AQSH Prezidenti R.Niksonning Sovet Ittifoqiga buyurgan tashrifi;
- ❖ Varshava shartnomasi tashkiloti davlatlari va Germaniya Federativ Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar tizimi: Bonn bilan Moskva o'rtasidagi shartnoma (1970-yil), Bonn-Varshava (1970-yil), Bonn-Praga (1973-yil), Bonn-Budapesht, Bonn-Sofiya (1973-yil), Berlin bo'yicha To'rt tomonlama kelishuvlar (1972-yil);
- ❖ 1972-yilda AQSH va Sovet Ittifoqi tomonidan imzolangan Strategik qurollarning cheklanishi to'g'risidagi bitim-1 (Strategic Arms Limitation Treaty).

Yevropa kontinentining har tomonlama xavfsizligi masalasiga bag'ishlangan anjumanni tashkillashtirish imkoniyati 1975-yilda vujudga keldi. Ushbu anjuman-forum kengash sifatida o'z faoliyatini boshladi. O'ttiz uchta Yevropa va ikkita Shimoliy Amerika mamlakatlarini birlashtirgan forum Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi deb nomlandi.

Dastlabki konferensiyada ko'rib chiqilgan asosiy masalalar taxminan uchta bo'lgusi hamkorlik sohalariga birlashgan:

- 1) xavfsizlik masalalari;
- 2) fan, iqtisodiyot, texnologiyalar va atrof muhit masalalari;

3) gumanitar masalalar.

Dastavval, yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha «Sharq-G'arb» dialogining formati «savat» (basket) deb atalgan kelishuvlar nazarda tutilgan. Keyinchalik, mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan aniq harakatlar va ushbu sohalar doirasidagi muayyan hamkorlik «o'lchovlar» (dimension) deb atalgan. Har bir «o'lchovni» (xavfsizlik; iqtisodiyot va atrof muhit; demokratiya va inson huquqlari) muayyan shartnomalar va kelishuvlar rejimi belgilab beradi.

Uch bosqichdan (1973-yildan 1975-yilgacha) iborat bo'lgan Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi konferensiyasining yakunlovchi bosqichida 1975-yili Xelsinki Yakuniy Akti imzolandi. Ushbu Yakuniy akt davlatlarning xalqaro doiradagi xatti-harakatini «Dekalog» (o'nta tamoyil)ga muvofiq ravishda belgilab va o'rnatib bergan:

1. Suveren tenglik, suverenitetga tegishli huquqlarni hurmat qilish;
2. Kuch yoki kuch orqali tahdidni ishlatmaslik;
3. Chegaralarning daxlsizligi;
4. Davlatlarning hududiy yaxlitligi;
5. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
6. Ichki ishlarga aralashmaslik;
7. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini, shu jumladan, fikr, vijdon, din, va e'tiqod erkinligini hurmat qilish;
8. Tenghuquqlilik va xalqlarning o'z taqdirini erkin hal qilish huquqi;
9. Davlatlar orasidagi hamkorlik;
10. Halqaro huquq majburiyatlarini vijdonan bajarilishi²¹.

1989-yili Berlin devori qulashi va 1991-yili Sovet Ittifoqining tarqalib ketilishi «yagona va erkin Yevropa»ning yangi davri boshlanishi haqida darak berdi. Ishtirokchi-davlatlar YEXHKni yangi tahdidlarni qabul qilishga da'vat etdilar. YEXHK o'zining birinchi doimiy tuzilmalariga, bularning qatorida Kotibiyat va institutlarga ega bo'ldi. YEXHK tegishli joylarda birinchi missiyalarini tashkil etdi. 1994-yili YEXHK Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT) o'zgargan boshqa nomiga ega bo'ldi²².

²¹ Qarang: Conference on security and co-operation in Europe Final Act. – Questions relating to Security in Europe. 1. (a) Declaration on Principles Guiding Relations between Participating States. – Helsinki, 1975.– P.4-8. – at <http://www.osce.org/>

²² Qarang: «Что такое Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе» – на <http://www.osce.org/>

YEXHT sammitlarida qabul qilingan asosiy hujjatlar quyidagilardir: 1975-yilda imzolangan Xelsinki Yakuniy Akti, 1990-yilda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi, 1999-yilda qabul qilingan Yevropa xavfsizligining xartiyasi, 1990-yilda imzolangan Yevropada oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi shartnoma, 1992-yilda imzolangan «Ochiq osmon» to'g'risidagi shartnoma.

YEXHK/YEHXTning muhim mexanizmlaridan bir nechtasi hisoblanadi: «xavfsizlik va ishonch choralari» (Confidence and security building measures) mexanizmi va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish mexanizmi.

«Xavfsizlik va ishonch choralari» (Confidence and security building measures) mexanizmi quyidagilardan iborat: harbiy kuchlar, texnika va qurollanishning asosiy tizimlari, ularning keng saflanishi rejalari to'g'risida har yillik axborot almashish; mudofaa sohasidagi rejalashtirish to'g'risida ma'lumot almashish va muhokama etish; xavfni qisqartirish choralari (noan'anaviy harbiy faoliyat, harbiy xarakterdagi xavfli vaziyat to'g'risida konsultatsiyalar va hamkorlik; muammolarni hal qilish uchun ixtiyoriy ravishdagi tashriflarni tashkil etish); harbiy yo'nalish bo'yicha aloqalar (aviabazalarga tashrif, harbiy hamkorlik, yangi shakldagi texnika va qurollanish asosiy tizimining namoyon etilishi); harbiy harakatning aniq turlari haqida dastlabki ogohlantirish va ularni kuzatish; yillik rejalar bilan almashish; joylarda tekshiruvlar o'tkazish²³.

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish mexanizmi xavflarni qisqartirish, erta ogohlantirish va inqirozlarni boshqarish choralaridan iborat.

1990-yilda Yevropada oddiy qurolli kuchlar to'g'risida shartnomani imzolanishi YEXHK/YEXHT ishtirokchi-davlatlarining «harbiy konfrontatsiya o'rniga hamkorlikka asoslangan yangi xarakterdagi xavfsizlik munosabatlarini» o'rnatishga intilishlari asos bo'ldi. Ushbu shartnomaning mazmuni Yevropadagi oddiy harbiy kuchlarning barqaror va xavfsiz muvozanatini tashkil etish, «kutilmagan hujum uyushtirilishini va Yevropadagi keng qamrovli hujumkor harakatlarni» bartaraf etish hamda Yevropani bo'linishiga


²³ Qarang: Архитектура Евроатлантической безопасности. / Под общей редакцией И.Ю. Юргенса, А.А. Дынкина, В.Г. Барановского. – Москва: Экон-Информ, 2009. – С. 70-71.

qarshi qaratilgan xatti-harakatlarni qo'llash g'oyalari bilan bog'liqdir²⁴.

1989-yili Venada va 1991-yili Moskvada qabul qilingan shartnomalar asosida tuzilgan huquqiy qoidalar YEHXTning samarali «insoniy (gumanitar) o'lchovini» boshqaradi. «Insoniy (gumanitar) o'lchov» sohasidagi YEHXTning institutlari quyidagilardir: Varshava shahrida joylashgan Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, 1992-yili Gaaga shahrida tashkil topgan Milliy ozchilik ishlari bo'yicha oliy komissari, Vena shahrida joylashgan Ommaviy axborot vositalari erkinligi masalalari bo'yicha vakili.

²⁴ Qarang: «Договор об обычных вооруженных силах в Европе 1990 г.» – на <http://www.osce.org/>

Mavzu bo'yicha tayyorlangan taqdimotning ayrim lavhalari.
1-rasm. YEXHT tuzilmasi



Rasm manbasi: <http://www.osce.org/> (Muallifning tarjimai – N.M.)

Yevropa Ittifoqi (YEI)

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi 28 davlatni birlashtiradi.

G'arbiy Yevropa davlatlarining birlashishiga olib kelgan tarixiy shart-sharoitlar quyidagilardir:

- ❖ «depressiv» iqtisodiy vaziyat (urushdan keyingi tiklanish sharoitlari);
- ❖ «Sharq-G'arb» yo'nalishi bo'yicha mafkuraviy va tizimli mojaro hamda sotsializmning va kommunizmning tarqalishiga qarshi qaratilgan Yevropaning birlashishida (Yevropa mamlakatlari integratsion harakatlarining jipslashishida) AQSHning faol «manfaatdorligi»;
- ❖ Fransiya va GFRning mojaroviy munosabatlari: Germaniyaning militarizatsion qayta tiklanishi hamda undan kelib chiqadigan harbiy tahdid oldida Fransiyaning qo'rquvi. Ushbu munosabatlarning yechimi integratsiya orqali hal qilinishi mumkin edi;
- ❖ bipolyar qarshi turish sharoitida Yevropaning «kuchlar markazi» yoki «hokimiyat qutbi» sifatida qayta tiklanishi.

Yevropa makoni doirasida integratsion loyihalarning amalga oshirilishi to'g'risida g'oyalar bir nechta asrlar muqaddam, XIV-XVI asrlarda, ilgari surilgan. 1923-yili avstriyalik olim R. Kudenxov-Kalergining «Pan-Yevropa» nomli kitobi nashr etilgan. Ushbu kitob hamnom harakatning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. 1929-yilda Fransiyaning Tashqi ishlar vaziri Aristid Brian Pan-Yevropa loyihasini amalga oshirish lozimligi nidosi bilan Millatlar Ligasida nutq so'zlagan. Ikkinchi Jahon urushi tugaganidan so'ng Yevropaning birlashishi to'g'risida g'oyalar U. Cherchill, J. Mone, R. Shuman, A. De Gasperi, K. Adenauer, A. Spinelli, P.A. Spaak kabi yetuk siyosiy arboblardan tomonidan ilgari surilgan.

Yevropa birlashishi va integratsiyasi borasidagi muhim va ahamiyatli hodisalar va hujjatlar:

1946-yil – Buyuk Britaniya Bosh vaziri U. Cherchillning Syurix shahridagi nutqi va undagi «Yevropa Qo'shma Shtatlari»ni tashkil etilishi to'g'risidagi g'oyaning ilgari surilishi.

1947-yil – Fransiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari mudofaa ittifoqi to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

1948-yil – Benilyuks bojxona ittifoqi tashkil etildi, Bryussel shartnomasi imzolandi.

1951-yil – Yevropa Ko'mir va Po'lat Birlashmasi (YEKPB) tashkil etildi. YEKPBni tashkil etilishi to'g'risidagi shartnomani GFR, Fransiya,

Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Italiya imzoladilar. YEKPBning maqsadi: ko'mir va po'lat sanoatida ishlab-chiqarish samarasini oshirish va modernizatsiyalash uchun umumiy bozorni tashkil etish, iqtisodiyotning strategik sohalaridagi ish bilan bandlik muammolarini hal etish hamda ishchilarning mehnat sharoitini yaxshilash.

1957-yil – Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH)ni va Atom Energiyasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevratom)ni ta'sis etilishi to'g'risida Rim shartnomalarini YEKPBning a'zolari imzoladilar.

1967-yil – integratsion loyihalarning institutsional rasmiylashtirilishi yakunlandi: Yevropa Hamjamiyatlarining (YEKPB, YEIH, Yevratom) yuqori organlari birlashishi tufayli yagona Kengash va Komissiya hamda Yevropa Parlamenti va Yevropa Sudi tashkil etildi.

1974-yil – Davlatlar va hukumatlar rahbarlari darajasida Yevropa Kengashining tashkil etilishi.

1977-yil – Yevropa Hamjamiyatlarining Komissiyasi raisi, Buyuk Britaniyaning sobiq moliya vaziri R. Jenkins Yevropa valyuta ittifoqi tuzilishi va yagona pul birligi kiritilishi to'g'risida g'oyani e'lon qildi.

1979-yil – Yevroparlamentga birinchi saylovlarning o'tkazilishi.

1987-yil – Yagona Yevropa Akti (YAYEA)ning qabul qilinishi.

Yagona Yevropa Akti Yevropa Hamjamiyatlari (YEH)ning huquqiy rasmiylashtirilishi va YEHni barcha sohalaridagi yagona muvofiqlashtirilgan siyosat yuritadigan Yevropa Ittifoqi (YEI)ga o'zgartirilishining dastlabki hujjati hisoblanadi.

1992-yil – Yevropa Hamjamiyatlarining Yevropa Ittifoqiga o'zgartirilishi to'g'risida Maastrixt shartnomasining imzolanishi.

1997-yil – Amsterdam shartnomasining imzolanishi. Ushbu shartnomaga binoan bir nechta qo'shimcha bo'limlar kiritilgan, bular: umumiy tashqi siyosat va xavfsizlik siyosatini olib borish haqidagi bo'lim; demokratiya tamoyillari, inson huquqlari va qonun ustuvorligi, terrorizmga, irqchilikka, kontrabandaga, jinoyatchilikka qarshi qurashish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish to'g'risidagi bo'lim; Yevropa Parlamenti haqidagi bo'lim; va h.k.

2001-yil – Nitssa shartnomasining imzolanishi. Ushbu shartnoma YEIdagi ichki islohotlar masalalariga qaratilgan bo'lib, qaror qabul qilish protseduralari va tamoyillarini, veto huquqining cheklanishini; yangi a'zolari qabul qilinishini; Ittifoqning umumiy tashqi va mudofaa siyosatining shakllanishini belgilab berdi.

2001-yil – Laaken shahrida Yevropa Ittifoqi Kengashi YEI Konstitutsiyasining Dastlabki loyihasi bo'lmish Yevropa Konventini tuzdi.

2004-yil – Rim shahrida Yevropa Konstitutsiyasini ta'sis etgan shartnoma imzolandi.

2007-yil – Lissabon shartnomasining imzolanishi.

Yevropa Ittifoqi kengayishining bosqichlari:

1973-yil – Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya tashkilotga a'zo bo'ldilar;

1981-yil – Gretsiya;

1986-yil – Ispaniya va Portugaliya;

1995-yil – Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya;

2004-yil – Chexiya, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Vengriya, Latviya, Litva, Estoniya, Kipr, Malta;

2007-yil – Bolgariya, Ruminiya;

2013-yil – Xorvatiya.

*Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati doirasidagi integratsion jarayonlarning asosiy bosqichlari*²⁵:

- ❖ 1957-1968-yy. *erkin savdo hududini yaratish* borasida bojxona to'lovlari, poshlina, kvota va boshqa savdo chegara turlarini bekor qilgan holda uchinchi mamlakatlarga nisbatan bojxona va savdo siyosatida YEIH mamlakatlarining avtonomiyasini saqlanib kelinishi;
- ❖ 1968-1987-yy. *bojxona ittifoqini yaratish* borasida savdo va bojxona siyosatining avtonom vositalarining o'rniga umumiy bojxona tarifiga hamda uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo siyosatiga o'tilishi;
- ❖ 1987-1992-yy. *yagona ichki bozor yaratish* borasida bojxona ittifoqining choralaridan tashqari xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarning erkin harakatini ta'minlovchi tadbirlarni o'tkazilishi;
- ❖ 1992-2002-yy. *iqtisodiy va valyuta ittifoqini yaratish* borasida milliy valyuta o'rniga umumiy (yevro) valyuta muomalaga kiritilishi bilan YEIning yagona valyuta va pul siyosatining qo'llanilishi.


²⁵ Qarang: <http://www.europa.eu/>; <http://www.ec.europa.eu/>; <http://www.consilium.europa.eu/>; <http://www.eurunion.org/>; Rus tilidagi izohi: Борко Ю. Расширение и углубление Европейской интеграции//Мировая экономика и международные отношения – №7. – Москва, 2004.

Mavzu bo'yicha tayyorlangan taqdimotning ayrim lavhalari.

1-rasm. YEIda qabul qilingan asosiy hujjatlar²⁶.




2-rasm. YEI tuzilmasi.




²⁶ 1-6-rasmlar manbasi <http://www.europa.eu/>. (Muallifning tarjimai – N.M.)

3-rasm. YEIning kengayishi.




4-rasm. YEI Parlamentidagi siyosiy partiyalar.



5-rasm. YEI rasmiy tillari.



6-rasm. YEI qonunlarini muhokama va qabul qilish bosqichlari.



Janubi–Sharqiy Osiyo Mamlakatlarining Assotsiatsiyasi (Association of South East Asian Nations, ASEAN)

Tashkil topgan yili – 1967-yil.

Shtab-qarorgohi – Kotibiyat – Jakarta.

A'zo-davlatlar soni – 10 (2012-y.).

Bruney, Vyetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin.

Tashkilotning tuzilishi va faoliyatining qisqa tarixi, muhim voqealari:

- ❖ 1967-yil 8-avgustda Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin ta'sischi-davlatlar tomonidan Assotsiatsiya tashkil etilishi va Bangkok deklaratsiyasi imzolanishi.
- ❖ 1971-yili Kuala-Lumpur shahrida «Janubi-Sharqiy Osiyoda tinchlik, erkinlik va betaraflik hududi to'g'risidagi Deklaratsiya»si qabul qilindi.
- ❖ 1976-yili Bali orolida Assotsiatsiyaning davlatlar va hukumatlar rahbarlari tomonidan birinchi kengash o'tkazildi va «Kelishuv Deklaratsiyasi» hamda «Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma» (I-Bali Kelishuvi) qabul qilindi.
- ❖ 1976-yili Papua-Yangi Gvineya mamlakati ASEAN tashkilotining kuzatuvchisi maqomiga ega bo'ldi.
- ❖ 1992-yili o'n besh yillik muddat mobaynida ASEANda erkin savdo hududini tashkil etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.
- ❖ 1995-yili Janubi-Sharqiy Osiyoda yadro qurolidan xolis bo'lgan hududni yaratish to'g'risidagi shartnoma imzolandi.
- ❖ 2002-yili Sharqiy Timor mamlakati ASEAN tashkiloti doirasida faoliyatini boshladi.
- ❖ 2003-yili ikkinchi Kelishuv Deklaratsiyasi (II-Bali Kelishuvi) qabul qilindi va «2020-y. ASEAN Qo'rinishi» hujjati tasdiqlandi.
- ❖ 2005-yili Kuala-Lumpur shahridagi sammitida ASEAN Xartiyasi (Nizomi) loyihasini ishlab chiqishi bo'yicha maxsus «Buyuk arboblar guruhi» tashkil topdi.
- ❖ 2007-yili ASEAN Nizomi imzolandi va ASEAN iqtisodiy hamjamiyatini tuzish bo'yicha Reja-loyihasi va tadbirlar grafigi qabul qilindi.

Bangkok deklaratsiyasiga muvofiq Assotsiatsiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ❖ iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy taraqqiyotni, madaniy rivojlanishni yuksaltirish;
- ❖ mintaqa mamlakatlari munosabatlarida qonunga umumiy amal qilish va huquq ustuvorligi/ustunligi orqali mintaqada tinchlik va barqarorlikni o'lg'a shiljishiga ko'maklashish hamda BMT Nizomining tamoyillariga rioya qilish;
- ❖ Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining siyosiy va iqtisodiy barqarorligini kuchli davlatlar raqobatidan himoyalash;
- ❖ ichki mintaqaviy kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun forum sifatida xizmat qilish.

Tashkilotning yaratilishiga ta'sirini ko'rsatgan omillar, hamkorlikning asosiy o'lchovlari hamda ASEANdagi mintaqaviylikning xususiyatlari:

- ❖ ASEANning ichki mintaqaviy xavfsizligini ta'minlash doirasida hamkorlik;
- ❖ Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari orasida mavjud bo'lgan kelishmovchiliklarni yengish va bartaraf etish;
- ❖ ASEAN mamlakatlaridagi chet el harbiy bazalari sonini kamaytirish;
- ❖ Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining tuzumlari xavfsizligini va siyosiy barqarorligini ta'minlash;
- ❖ mintaqada xavfsizlikni ta'minlaydigan yagona kuchning yo'qligi;
- ❖ mintaqadan tashqari bo'lgan (AQSH, Xitoy, sobiq Sovet Ittifoqi) va mintaqaning ichki «o'yinchilari» (ASEAN ishtirokchi-mamlakatlari) manfaatlarining zidligi;
- ❖ tashqi tahdid va antikommunizmga kollektiv qarshi turish;
- ❖ mintaqaviy mojarolarga mintaqadan tashqari o'yinchilarning aralashishiga qarshilik ko'rsatish va, natijada, «ASEANlik izolyatsionizm»ining shakllanishi;
- ❖ Indoneziyaning «milliy monelik ko'rsatish» modeliga asoslangan «mintaqaviy qarshi turish» konsepsiyasi. Indoneziyaning «milliy monelik ko'rsatish» modeli quyidagi muhim qismlardan iborat: 1) mafkuraviy mustahkamlik (har qanday dushmanlik ruhidagi targ'ibotga samarali qarshi turish); 2) siyosiy qudrat (ichki siyosatining barqarorligi va faol tashqi siyosat); 3) iqtisodiy salohiyat (hayotning yuqori darajasi va yirik sanoatning rivojlanishi); 4) madaniy qudrat (milliy o'ziga xoslik);

5) harbiy qudrat (tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish uchun yetarli darajada rivojlangan harbiy kuchlar)²⁷.

«Bandung tamoyillari»ga²⁸ (ijtimoiy tuzumi xilma-xil bo'lgan davlatlarning bir-biri bilan tinch-totuv yashash tamoyillari) asoslangan va 1976-yilda qabul qilingan Bali shartnomasi («Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma») ASEAN mamlakatlari va mintaqadan tashqari bo'lgan barcha «o'yinchilar» uchun «xatti-harakatlar kodeksi»ni namoyon etadi. Ushbu «xatti-harakatlar kodeksi» quyidagi tamoyillardan iboratdir:

- ❖ barcha davlatlarning mustaqilligini, suverenitetini, tengligi va milliy jihatdan bir-biriga o'hshashligini o'zaro hurmat qilish;
- ❖ har bir mamlakatning tashqaridan aralashish, tazyiq, buzg'unchi harakatlardan xoli bo'lgan o'zining milliy siyosatini yuritish huquqi;
- ❖ bir-birilarining ichki ishlariga aralashmaslik;
- ❖ tinchlik vositalari bilan nizolarni va kelishmovchiliklarni hal qilish;
- ❖ kuch yoki kuch orqali tahdidni ishlatishdan voz kechish;
- ❖ o'zaro manfaatlar va hamkorlikka ko'maklashish²⁹.

1987-yildan boshlab, ushbu shartnoma ASEAN a'zolari bo'lmagan davlatlar uchun ham imzolash imkonini tug'dirib berdi: «Bali Kelishuvi»ni 16 ta davlat imzolagan, ularning qatorida XXR, Yaponiya, Rossiya, Hindiston, 2008-yilda KXDR, Shri-Lanka, Bangladesh kabi Osiyo mamlakatlari, 2009-yilda esa AQSH mamlakati qo'shildilar.

2003-yilda qabul qilingan «II-Bali Kelishuvi»ga binoan, uch tayanchdan iborat bo'lgan ASEAN hamjamiyatining tashkil etilishi ma'qul keldi, bular: Xavfsizlik Hamjamiyati, Iqtisodiy Hamjamiyat va Ijtimoiy-Madaniy Hamjamiyatlaridir.

ASEAN va xalqaro tashkilotlar, davlatlar guruhi, nodavlat aktorlar o'rtasidagi ko'p qirrali va kompleks ravishdagi hamkorlik bilan bog'liq bo'lgan bugungi kundagi Assotsiatsiyaning mintaqaviyligi «sovuq urush» davridagi mintaqaviyligidan ancha farqliroqdir.

²⁷ Batafsil qarang: Восток/Запад: региональные подсистемы и региональные проблемы международных отношений. / Под ред. А.Д. Воскресенского – Москва: РОССПЭН, 2002. – С. 454.

²⁸ Ushbu tamoyillar 1955-yil 18-24 aprelda Indoneziyaning Bandung shahrida bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika 29 mamlakatlarning konferensiyasida qabul qilingan.

²⁹ Qarang: «Bali Concord I» – at <http://www.aseansec.org>; Rus tilida izoh: АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы / Л. Е. Васильев [и др.].- М.: ИД «ФОРУМ», 2010. – С. 14-15.

Yuqorida qayd etilganidek, 2007-yili ASEAN Nizomi imzolandi va ASEAN Iqtisodiy Hamjamiyatini tuzish bo'yicha Reja-loyihasi va tadbirlar grafigi qabul qilindi. Qabul qilingan Nizomga muvofiq Yevropa Ittifoqi kabi ASEAN mamlakatlari tovarlar, sarmoyalar va malakali ishchi kuchlarining erkin harakatidagi umumiy bozorni yaratilishiga 2015-yilda yakun yasashni rejalashtirishgan.

Qabul qilingan Nizomga muvofiq, ASEANning Oliy organi hisoblangan va har yili o'tkaziladigan *Davlatlar va Hukumatlar Rahbarlari Sammiti* (DHRS) ASEANning bir yilda eng kamida ikki marta to'planadigan *Kengashiga* o'zgartirilgan. Yilning birinchi yig'ilishida ASEANning ichki muammolari muhokama qilinadi, ikkinchisi esa, yil ohirida o'tkazilib, xalqaro muammolarni va hamkor davlatlar bilan munosabatlarni hal qilishga qaratilgandir.

Nizom qabul qilinishidan oldin, tashkilotga a'zo-mamlakatlarni tashqi ishlar vazirlarining har yilgi yig'ilishlari Assotsiatsiyaning rahbarlik qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi organi vazifasini bajarib kelganlar. Kundalik boshqaruvni rais-davlatning tashqi ishlar vaziri raisligida *Doimiy qo'mita* olib boradi. Endi esa, sammitlar tashkilotga a'zo-mamlakatlarni tashqi ishlar vazirlarining bir yilda ikki marotaba to'planadigan *Muvofiqlashtiruvchi kengashi* tomonidan tashkillashtiriladi. Ilgari qabul qilingan qarorlar bajarilishi ustidan monitoringni olib borish Muvofiqlashtiruvchi kengashning vazifasidir. Siyosat va xavfsizlik, iqtisodiyot va ijtimoiy-madaniy hamkorlik sohalariga oid tegishli vazirliklar va muassasalar rahbarlari darajasidagi uch kengash tuzilgandir.

Oliy organ sifatida *ASEAN Kengashi* qarorlar qabul qiladi. Agar Kengash tomonidan Assotsiatsiya a'zo-mamlakatlardan biri qabul qilingan qarorlarni bajarmasligi yoki Nizomning asosiy tamoyillariga zid ravishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yganligi aniqlansa, u (Kengash) hukm chiqarishga ega. Kengash ASEAN *Bosh Kotibining* yillik hisobotini va Hamjamiyat kengashlarining alohida bo'lgan uch ma'ruzasini tinglaydi.

Kengash doirasida uchrashuvlarni tashkillashtiradigan davlat (hukumat) rahbari rotatsiya tartibiga ko'ra bir yil muddatga ASEAN Kengashining raisi sifatida tasdiqlanadi. Qarorlarni qabul qiladigan va amalga oshiradigan ASEANning organlari uchta asosiy yo'nalish bo'yicha guruhlariga bo'linib (xavfsizlik, iqtisodiyot va ijtimoiy-madaniy sohasi) ish yuritadilar. Assotsiatsiyaning barcha a'zolari o'z vakillarini *ASEAN Kotibiyatiga* yo'llaydilar. Assotsiatsiyaning hamkor-mamlakatlariga ham Jakarta shahrida joylashgan ASEAN Kotibiyatiga o'z doimiy vakillarini tayinlash taklifi bildiriladi.

ASEANda nizolarni hal qilish mexanizmi yaratilgan: hukm chiqaradigan mustaqil organ nizolarni bartaraf etadi.

ASEANning Bosh Kotibi vazir maqomi bilan foydalanadi va sammit tomonidan Muvofiqlashtiruvchi kengash ko'rsatmasiga binoan rotatsiya tartibiga ko'ra besh yillik muddatiga tayinlanadi. Bosh Kotibning to'rt muovini tashqi aloqalar, xavfsizlik, iqtisod va ijtimoiy-madaniy hamkorlik sohalari bo'yicha tayinlanadi. Assotsiatsiyaning Kotibiyati va ASEANning *Tadqiqot instituti* Bosh Kotib rahbarligida o'z ishlarini yuritadilar. ASEANning Tadqiqot instituti a'zo-mamlakatlarning akademik markazlari, biznes-tuzilmalari hamda nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ish yuritadi. Xilma-xil dasturlar bajarilishini muvofiqlashtiradigan 28 ta vazirliklararo organ ASEAN tarkibida faoliyat ko'rsatadi. Ular yil mobaynida 300 dan ortiq tadbirlar va uchrashuvlar o'tkazadi.

Assotsiatsiyaning ko'p qirrali faoliyati (1) a'zo-davlatlarning teng to'lovlari asosida, (2) har yili rotatsiya tartibiga ko'ra o'zgaradigan raislik qilayotgan mamlakat, (3) alohida davlatlarning qo'shimcha to'lovlari hamda (4) xususiy biznes tomonidan moliyalashtiriladi³⁰.

ASEANda o'ziga xos siyosiy dialog madaniyati shakllangan: oliy va yuqori darajadagi amalga oshiriladigan konsultatsiyalar tizimi (ASEAN «uslubi» – ASEAN Way). ASEAN «uslubi»ga ko'ra mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni qurolli to'qnashuvlarga o'tib ketmasligi uchun to'siq yaratadi va nazorat qiladi.

«Konsentrik doiralar» tamoyiliga asoslangan holda ASEAN mintaqaviy, mintaqalararo va transmintaqaviy forumlar orqali qo'shni mamlakatlar va mintaqalarga taalluqli izchil siyosatini olib boradi. Ustuvor yo'nalishlar quyidagilardir:

- ❖ ASEAN+3 (Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi);
- ❖ Sharqiy Osiyo Hamjamiyati yoki ASEAN+6 (qo'shib hisoblaganda Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya);
- ❖ Osiyo-Tinch Okeani Iqtisodiy Hamjamiyati;
- ❖ Mintaqaviy Xavfsizlik Masalalari bo'yicha ASEANning Forumi (ASEAN Regional Forum, ARF);
- ❖ Osiyo – Yevropa Forumi (Asia-Europe Meeting, ASEM);
- ❖ «Osiyo – Yaqin Sharq» Dialogi (Singapur g'oyasi asosida);
- ❖ «Shangri-La Dialoglari» (Osiyo-Tinch okeani mintaqasida xavfsizlik masalalari);


³⁰ Qarang: Charter of the Association of Southeast Asian Nations. Singapore, 20 November 2007. – ASEAN Secretariat, Jakarta, 2008.; Rus tilida izoh: ACEAN в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы / Л. Е. Васильев [и др.]. - М.: ИД «ФОРУМ», 2010.

- ❖ ASEAN+1 Dialoglari va Sammitlari (ASEAN+Rossiya, ASEAN+Hindiston, va h.k.);
- ❖ Trek bir va trek ikki formatidagi uchrashuvlar.

Assotsiatsiya doirasida mamlakatlarning qo'shma integratsion intilishlari va boshqa mintaqaviy birlashmalar doirasidagi samarali hamkorlik va aloqalar ASEAN manfaatlarini olg'a surishga ko'maklashadilar.

Mavzu bo'yicha tayyorlangan taqdimotning ayrim lavhalari.

1-rasm. ASEANning kengayishi.



Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)

Tashkil topgan yili – 2001-yil.

Shtab-qarorgohi – Kotibiyat – Pekin.

A'zo-davlatlari soni – 6.

Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston.

Kuzatuvchi-davlatlar: Mongoliya, Eron, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston.

Dialog bo'yicha hamkor davlatlar: Belorussiya, Shri-Lanka, Turkiya.

Rus va xitoy tillari rasmiy va ishchi tillari hisoblanadi.

SHHTning tuzilishi va faoliyatining qisqa tarixi, muhim voqealar:

- ❖ 1964-yilda XXR va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi chegaraviy hududiy nizolar yechimini topish uchun birinchi muzokaralar olib borildi;
- ❖ 1989-yili XXR va SSRI sharqiy chegara to'g'risidagi bitimni imzoladilar;
- ❖ 1990-yili XXR va sobiq Ittifoq sovet-xitoy chegarasi maydonida qo'shirlarni ikki tomonlama qisqartirish va harbiy masalalarda o'zaro ishonchni kuchaytirish to'g'risidagi kelishuvni imzoladilar;
- ❖ Yuqorida ko'rsatilgan Xitoy Sovet Ittifoqi bilan kelishuvi asosida 1991-yili Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Xitoy «4+1» formati doirasida chegaraviy masalalarni hal etish borasida muzokaralar olib borishni davom ettirdilar;
- ❖ 1996-yili «Shanxay beshligi» «Chegara doirasida harbiy sohadagi ishonchni mustahkamlash to'g'risidagi kelishuv»ni imzoladi;
- ❖ 1997-yili Moskva shahrida «Shanxay beshligi» «Chegara doirasida qurollangan kuchlarni o'zaro qisqartirish to'g'risidagi kelishuv»ni imzoladi;
- ❖ 2001-yili «Shanxay beshligi» nomidagi guruh O'zbekiston qo'shilishi bilan «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» nomiga ega bo'ldi;
- ❖ 2001-yil 15-iyunda «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi» qabul qilindi;
- ❖ 2002-yil 7-iyunda Sankt-Peterburg shahrida SHHT Xartiyasining (Nizomi) qabul qilinishi bo'lib o'tdi;

- ❖ 2003-yili Moskva shahrida SHHT asosiy organlari ish tartibini, byudjet tuzilishi mexanizmini belgilab bergan hujjatlar imzolandi va Tashkilotning ramzlari qabul qilindi;
- ❖ 2003-yili Pekin shahrida Hukumatlar rahbarlari (Bosh vazirlar) kengashi SHHT a'zo-davlatlarining ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorligi to'g'risidagi uzoq muddatli Dasturni tasdiqladi. Ushbu Dastur oltita mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning maqsad va vazifalarini va uning 2020-yilgacha bo'lgan istiqbolini belgilab berdi;
- ❖ 2004-yildagi Toshkent sammiti tashkilotning institutsional shakllanishiga yakun yasadi;
- ❖ 2004-yili Mongoliya mamlakati Shanxay Hamkorlik Tashkilotining kuzatuvchisi maqomiga ega bo'ldi;
- ❖ 2005-yili Hindiston, Eron, Pokiston mamlakatlari SHHTga kuzatuvchi-davlatlar sifatida taklif etildilar;
- ❖ 2009-yili Ekaterinburg shahridagi uchrashuvda SHHT a'zo-davlatlarining rahbarlari «Dialog bo'yicha Hamkor» deb nomlangan yangi maqomni ma'qulladilar. Bu borada Shri-Lanka va Belorussiya mamlakatlari «Dialog bo'yicha Hamkor» degan maqomga ega bo'ldilar;
- ❖ 2011-yili Ostona shahrida «2011-2016-yillar mobaynidagi SHHT a'zo-davlatlarining narkotiklarga qarshi qaratilgan strategiyasi» va ushbu strategiyani bajarilishi uchun «Harakatlar Dasturi» qabul qilindi;
- ❖ 2012-yili Pekin shahridagi sammitda Afg'oniston mamlakati Shanxay Hamkorlik Tashkilotining kuzatuvchisi maqomiga, Turkiya mamlakati esa «Dialog bo'yicha Hamkor» maqomiga ega bo'ldilar.

SHHT Xartiyasiga muvofiq Tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardir³¹:

- ❖ a'zo-davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stlik va qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi ezgu munosabatlarni mustahkamlash;
- ❖ mintaqadagi tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash va mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va ratsional (aql-idrokka asoslangan) siyosiy va iqtisodiy xalqaro

³¹ Qarang: Хартия Шанхайской Организации сотрудничества. Встреча глав-государств ШОС. Санкт-Петербург. 7 июня 2002 г. – на <http://www.sectesco.org/>

- tartibotni qurishda ko'maklashish maqsadida ko'p sohali hamkorlikni rivojlantirish;
- ❖ terrorizm, separatizm va ekstremizmga va ularning har qanday ko'rinishlariga o'zaro qarshi harakat olib borish, noqonuniy narkotik va qurol aylanmasiga, transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlariga hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;
 - ❖ siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, ichki ishlar, tabiatni muhofaza qilish, madaniy, ilmiy-texnikaviy, ta'lim, energetika, transport, kredit-moliyaviy va boshqa sohalarida umumiy manfaatlarni ifodalaydigan samarali mintaqaviy hamkorlikni rag'batlantirish;
 - ❖ a'zo-mamlakatlar xalqlarining hayot darajasini doimiy ko'tarish va yashash sharoitini yaxshilash maqsadida teng huquqli hamkorlik asosida o'zaro harakat orqali mintaqadagi har tomnolama va muvozanatli iqtisodiy yuksalishga, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ko'maklashish;
 - ❖ jahon iqtisodiyotiga integratsiya yondashuvlarini muvofiqlashtirish;
 - ❖ a'zo-davlatlarning xalqaro majburiyatlari va milliy qonunlariga muvofiq ravishda inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini ta'minlashda ko'maklashish;
 - ❖ boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
 - ❖ xalqaro mojarolarni oldini olish va tinch yo'l bilan hal qilishda birgalikda harakat qilish;
 - ❖ XXI asrda paydo bo'ladigan barcha muammolar yechimini birgalikda izlash.

*SHHTning organlari*³².

Davlatlar rahbarlari kengashi (DRK) SHHTning Oliy organi hisoblanib, tashkilot faoliyatining ustuvor va asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, uning ichki tarkibi va faoliyati bo'yicha, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliginining muhim masalalarini hal qiladi. Bir yilda bir marta Kengash navbatdagi majlisiga yig'iladi. Kengash yig'ilishda raislikni navbatdagi majlisini tashkillashtirgan rus alifbosi tartibi asosida SHHT a'zo-davlatlaridan tanlangan davlat rahbari bajaradi.

³² Qarang: Хартия Шанхайской Организации сотрудничества. Встреча глав-государств ШОС. Санкт-Петербург. 7 июня 2002 г. – на <http://www.sectsco.org/>

Hukumatlar rahbarlari (Bosh vazirlar) kengashi (HRK) tashkilotning byudjetini qabul qiladi va muayyan sohalarga tegishli bo'lgan, jumladan, tashkilot doirasida iqtisodiy sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan asosiy masalalarni hal qiladi. Hukumatlar rahbarlari (Bosh vazirlar) kengashining navbatdagi majlisi bir yilda bir marta yig'iladi. Hududida majlis o'tkazayotgan davlatning hukumati rahbari Kengash yig'ilishida raislikni bajaradi.

Tashqi ishlar vazirlari kengashi (TIVK) tashkilotning kundalik faoliyatiga tegishli, Davlat rahbarlari kengashining majlisiga tayyorgarlik ko'rish va SHHT doirasida xalqaro muammolar to'g'risida konsultatsiya olib borish borasidagi masalalarni ko'rib chiqadi. TIVK Davlatlar rahbarlari kengashining majlisini o'tkazishdan bir oy oldin yig'iladi. Tashqi ishlar vazirlari kengashi Raisi Tashkilot vakili sifatida tashqi aloqalarni amalga oshiradi.

Vazirliklar va/yoki idoralar rahbarlari kengashlari. Davlat rahbarlari kengashinining va Hukumatlar rahbarlari (Bosh vazirlar) kengashining qarorlariga muvofiq a'zo-davlatlarning sohaviy vazirliklari va/yoki idoralari boshliqlari SHHT doirasidagi tegishli sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muayyan masalalarni ko'rib chiqish uchun muntazam ravishdagi majlislarni olib boradilar.

Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi tashkilotning kundalik faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish bo'yicha vazifalarni bajaradi, Davlatlar rahbarlari, Hukumatlar rahbarlari, Tashqi ishlar vazirlari kengashlarining yig'ilishlariga tegishli zarur bo'lgan tadbirlarni amalga oshiradi. Kengash bir yilda uch martadan kam bo'lmagan majlislarga yig'iladi.

2001-yil 15-iyunda qabul qilingan Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi ishtirokchi-davlatlarning Mintaqaviy antiterroristik (aksiterroristik) tuzilmasi (MATT) SHHTning doimiy faoliyat ko'rsatadigan organi hisoblanadi. MATT shtab-qarorgohi Toshkent shahrida joylashgan. SHHTning MATT doirasida harbiy hamkorlik amalga oshiriladi, ko'p tomonlama antiterroristik o'quv mashg'ulotlar olib boriladi, xavfsizlik xizmatlari tomonidan muhim ma'lumotlar bilan almashish, terroristik tashkilotlarning umumiy ro'yhatini muvofiqlashtirish, birgalikda narkotiklar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha tegishli choralar amalga oshiriladi.

Kotibiyat SHHTning doimiy faoliyat olib boruvchi ma'muriy organidir. Kotibiyatni Ijrochi Kotib boshqaradi. Ijrochi Kotib shaxsi Tashqi ishlar vazirlari kengashi taqdimotiga ko'ra a'zo-davlatlarning

fuqarolari sonidan rotatsiya asosida rus alifbosi tartibi bo'yicha tanlangan a'zo-davlatlaridan uch yillik muddatga hamda muddatni uzaytirish huquqiga ega bo'lmagan holda Davlatlar rahbarlari kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

SHHT organlari doirasida *qarorlar* muvofiqlash orqali ovoz berilmasdan qabul qilinadi va qarorlarni muvofiqlashtirish jarayonida a'zo-davlatlardan birortasi e'tiroz bildirmagan bo'lsa qarorlar qabul qilingan deb hisoblanadi. A'zolikni to'xtatib qo'yish yoki tashkilotdan chiqarib qo'yish bilan bog'liq bo'lgan qarorlar «konsensus minus bitta manfaatdor bo'lgan a'zo-davlatining ovozi» bilan qabul qilinadi.

2010-yili Davlatlar rahbarlari kengashining Toshkent shahridagi majlisida «Yangi a'zolari qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom» ma'qullandi. «Yangi a'zolari qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom»da a'zolikka talabgor davlat muvofiq bo'lishi uchun mezonlar belgilab berilgan. Nizomga binoan, *to'la huquqli a'zolikka talabgor davlat* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim³³:

- ❖ davlat Yevrosiyo mintaqasiga mansub bo'lishi lozim;
- ❖ barcha a'zo-davlatlar bilan diplomatik munosabatlarga ega bo'lishi shart;
- ❖ SHHTning kuzatuvchi-davlat yoki «Dialog bo'yicha Hamkor» davlati maqomida bo'lishi shart;
- ❖ a'zo-davlatlar bilan faol (substantiv/haqiqatdan mavjud bo'lgan) savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borishi;
- ❖ BMT Xavfsizlik Kengashi sanksiyalari ostida bo'lmasligi kerak;
- ❖ a'zolikka talabgor-davlatning xavfsizlik sohasidagi xalqaro majburiyatlari xalqaro shartnomalarga va SHHT tomonidan qabul qilingan boshqa hujjatlarga zid bo'lmasligi lozim;
- ❖ boshqa davlatlar bilan qurollangan mojarolar holatida bo'lmasligi shart.

2011-yili Ostona sammitida yangi a'zolari qabul qilish tartibiga oid masalalari bilan bog'liq «SHHT a'zo-davlati maqomiga ega bo'lish maqsadida talabgor davlatning majburiyatlari to'g'risida namunali Memorandumi» qabul qilindi.

³³ Qarang: Положение о порядке приема новых членов ШОС. – Ташкент, 2010.; Rus tilida izoh: Стратегия России в Центральной Азии и Шанхайская организация сотрудничества. Сборник статей / Под редакцией А.В. Лукина. Институт международных исследований. - Москва: МГИМО – Университет, 2012.

SHHT Taraqqiyot fondi, Ishbilarmonlar kengashi va SHHT Banklararo birlashuvi SHHTning yordamchi tashkilotlari va mexanizmlari sifatida o'z ishlarini yuritadilar. SHHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlik Ishbilarmonlar kengashi va Banklararo birlashuvi orqali amalga oshiriladi. Biznes-hamjamiyatlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatilishi va rivojlanishi uchun Ishbilarmonlar kengashi iqtisodiy forumlarni tashkil etadi, bulardan ma'lumlari: Sian iqtisodiy forumi (XXR), Baykal iqtisodiy forumi (Irkutsk, RF), va h.k. Ishbilarmonlar doiralarining qo'shma faoliyatini istiqbolli yo'nalishlari va loyihalarini aniqlash uchun Ishbilarmonlar kengashi shafeligida seminarlar, konferensiyalar va davra suhbatlari o'tkaziladi. Iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri SHHT «Energetik klubi» doirasida aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. SHHT «Energetik klubi»ni tuzish g'oyasi 2006-yilda RF Prezidenti V. Putin tomonidan ilgari surildi. Rossiyalik ekspertlarning fikriga ko'ra Energetik klubning konsepsiyasi to'rtta o'lchovni ifodalaydi, bular: (1) global o'lchov; (2) mintaqaviy-yevrosiyolik o'lchov (Rossiya, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarining makoni); (3) submintaqaviy o'lchov (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston); (4) mamlakatlar darajasidagi o'lchov (SHHT a'zo-davlatlarining milliy energetik modellari rivojlanishi)³⁴.

SHHT Forumi 2006-yili Moskva shahrida tashkil etilgan. SHHT Forumi ko'p tomonlama, jamoaviy konsultatsion-ekspertlik mexanizmi hisoblanadi. Forum SHHT faoliyatiga (1) ko'maklashish va ilmiy yordam berish, (2) SHHT a'zo-davlatlarining ilmiy-tadqiqot va siyosatshunos markazlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, (3) Tashkilotga tegishli bo'lgan dolzarb masalalar bo'yicha birgalikda tadqiqotlarni olib borish, (4) Tashkilot faoliyatining tamoyillari va vazifalarini tushuntirish, (5) ilmiy va ijtimoiy doiralar bilan Tashkilotning aloqalarini rivojlantirish, (6) siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, ekologiya, yangi texnologiyalar, gumanitar va boshqa sohalarda olimlar va ekspertlar fikrlarini almashishlarini rag'batlantirish uchun tashkil qilingan³⁵.

³⁴ Batafsil qarang: Стратегия России в Центральной Азии и Шанхайская организация сотрудничества. Сборник статей / Под редакцией А.В. Лукина. Институт международных исследований. - Москва: МГИМО – Университет, 2012. - С.175-189; Лузянин С.Г. Шанхайская организация сотрудничества: модель образца 2008 года. – http://www.perspektivy.info/rus/konturi/shankhajska_organizacija_sotrudnichestva_model_obrazca_2008_goda_2008-03-28.htm;

³⁵ Batafsil qarang: <http://www.mgimo.ru/system/php/print.phtml?url=/sco/index.phtml#>

SHHT doirasida xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni muhim yo'nalishlaridan biri Afg'on vektori hisoblanadi: 2005-yil 4-noyabrda Pekin shahrida «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – Afg'oniston Islom Respublikasi Muloqot guruhi» tashkil etildi. SHHT va Afg'oniston o'rtasidagi hamkorlikning olib borilishi bo'yicha o'zaro manfaatlarga asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish – ushbu guruhning maqsadi deb belgilandi.

2004-yili SHHT a'zo-davlatlari xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan ko'p tomonlama birlashmalarning «sheriklik tarmog'i»ni tashkil qilish bo'yicha tashabbusini ilgari surdilar. SHHT a'zo-davlatlari uchun ustuvor yo'nalishlaridan biri bu Osiyo Tinch okeani mintaqasida umummintaqaviy xavfsizlik va hamkorlik tizimini tashkil qilishda ishtirok etish. SHHT faoliyatidagi terrorizm, radikal ekstremizm, separatizm, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish ham mintaqaviy, ham global ahamiyatga ega.

Misol uchun, mintaqaviy va global muammolar bo'yicha yagona pozitsiyaga ega bo'lgan SHHT va ASEAN o'rtasidagi hamkorlik rivojlanib kelmoqda. 2005-yili Jakarta shahrida Hamjihatlik to'g'risidagi Memorandum ASEAN va SHHT Kotibiyatlari tomonidan imzolandi. Memorandumga binoan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

- ❖ terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- ❖ narkotiklar va qurollar kontrabandasiga qarshi kurashish;
- ❖ noqonuniy pullarni «yuvilishi»ga va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;
- ❖ iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish;
- ❖ turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- ❖ atrof muhitni asrash va tabiiy resurslardan unumli foydalanish;
- ❖ energetika (aynan gidroenergetika va bio-yoqilg'i) sohasida hamkorlikni rivojlantirish.

2004-yili BMT Bosh Assambleyasi 59-sessiyasining yalpi majlisida BMT Bosh Assambleyasi qoshida SHHTga kuzatuvchi maqomini taqdim etish to'g'risidagi A/RES/59/48 rezolyutsiyasi qabul qilingan. 2010-yili BMT Bosh Assambleyasi majlisida BMT va SHHT o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Rezolyutsiya qabul qilindi.

Osiyodagi hamkorlikning ko'p tomonlama formati yuqorida qayd etilgan «tarmoqli tashqi aloqalar» asosida rivojlanmoqda. Ushbu aloqalarning muhim qismini xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda tuzilmalar bilan hamkorlikni o'rnatish va

mustahkamlash borasidagi SHHTning harakatlari tashkil etadi. Ushbu xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda tuzilmalar quyidagilardir: BMT; BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi; MDH; Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (ODKB); Yevrosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (YevrAzES); ASEAN; Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti; Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha BMTning boshqarmasi; Narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha xalqaro qo'mita; Narkotik, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarini noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyodagi mintaqaviy axborot muvofiqlashtiruvchi markaz va h.k. Ushbu amaliy diplomatiyaning ko'rinishlaridan biri: SHHT a'zo-davlatlarining hukumatlari o'rtasidagi «Xalqaro avtomobil yo'llar orqali yuklarni tashish uchun qulay sharoitlarni yaratish to'g'risidagi Bitim» loyihasini tayyorlash jarayonida Osiyo Taraqqiyot Bankining yordamida Shanxay Tashkiloti va BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi faol hamkorlik olib bordilar.

Mavzu bo'yicha tayyorlangan taqdimotning ayrim lavhalari.

1-rasm. SHHT tuzilmasi.



2-rasm. SHHTning yordamchi tashkilotlari.



Adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999.
5. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000.
6. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10–жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2002.
7. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11–жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
8. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. 12–жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2004.
9. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.: “Ўзбекистон”, 2005.
10. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. 15–жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007.
11. Каримов И.А. НАТО/СЕАП саммитида нутқ. 2008 й. 2 апрель./ Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. – 16-жилд – Т.: “Ўзбекистон”, 2008.
12. Каримов И.А. Оролни қутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлари раҳбарларининг кенгайтирилган таркибидаги учрашувида сўзлаган нутқ./ Ватанимизни босқичма-босқич ва барқарор ривожланишни таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. – 17-жилд – Т.: “Ўзбекистон”, 2009.
13. Каримов И.А. Ривожланиш йўлида ҳамкорлик. Осиё Тараққиёт Банки Бошқарувчилар кенгаши 43-йиллик мажлисининг очилиш маросимидаги нутқ. 2010 й. 3 март./ Жаҳон

инқирозининг оқибатларини енгиш, мамалакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. – 18-жилд – Т.: “Ўзбекистон”, 2010.

14. Каримов И.А. Шанхай Ҳамкорлик ташкилоти давлат раҳбарлари кенгашининг кенгайтирилган таркибидаги мажлисида сўзлаган нутқ. Тошкент шаҳри, 2010 й. 11 июнь./ Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамалакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. – 18-жилд – Т.: “Ўзбекистон”, 2010.

15. Каримов И.А. БМТнинг “Мингйиллик ривожланиш мақсадлари”га бағишланган БМТ БАнинг 65-сессиясида сўзлаган нутқи. 20 сентябрь 2010 йил// <http://www.press-service.uz/>

16. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 31 август 2012 йил.// <http://www.press-service.uz/>

Asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va monografiyalar ro'yxati

17. Арешидзе Л.Г. Международные отношения в Восточной Азии. Угрозы и надежды. – Москва: «Международные отношения», 2007.

18. АСЕАН в начале XXI века. Актуальные проблемы и перспективы / Л.Е. Васильев (и др.) – М.: ИД «Форум», 2010.

19. Архитектура Евроатлантической безопасности. / Под общей редакцией И.Ю. Юргенса, А.А. Дынкина, В.Г. Барановского. – Москва: Экон-Информ, 2009.

20. Введение в теорию международных отношений и анализ внешней политики.: Учеб. пособие. Н.А. Ломагин (рук-ль автор. коллек-ва). – СПб., 2001.

21. Восток/Запад: региональные подсистемы и региональные проблемы международных отношений. / Под ред. А.Д. Воскресенского – Москва: РОССПЭН, 2002.

22. Европа: вчера, сегодня, завтра. / Отв. ред. Н.П. Шмелёв – Москва: «Экономика», 2002.

23. Европейский Союз и Центральная Азия / Под общей ред. д.э.н., проф. Б. Ходжаева. – Ташкент, 2010.

24. Жураев С.А., Касимова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Ташкент: Akademiya, 2008.

25. Кальвокоресси П. Мировая политика после 1945 года (в двух книгах). – Москва: «Международные отношения», 2000.

26. Каримова А. Международные организации – инструмент многостороннего сотрудничества (теория и практика). – Ташкент: УМЭД, 2001.
27. Лебедева М.М. Мировая политика. – М.: «Аспект-Пресс», 2003.
28. Международное право. / Под ред. Ю.М.Колосова, В.И. Кузнецова. 2 –е изд. – М., 1998.
29. Мировая политика: теория, методология, прикладной анализ / Отв. ред. А.А. Кокошин, А.Д. Богатуров. – М.: КомКнига, 2005.
30. Морозов Г.И. Международные организации. – Москва: «Мысль», 1974.
31. Мутагиров Д.З. Международные политические институты: актуальные проблемы истории и теории. – Москва: «Логос», 2009.
32. Основные направления внешней политики и дипломатии Республики Узбекистан в трудах Президента Республики Узбекистан И.А. Каримова. – Т.: УМЭД, 2006.
33. Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат – Тошкент: ЖИДУ, 2005.
34. Современные международные отношения/Под ред. А.В. Торкунова. – Москва: РОССПЭН, 2006.
35. Современные международные отношения и мировая политика: учебник /А.В. Торкунов, И.Г. Тюлин, А.Ю. Мельвиль и др. – М.: Просвещение, 2005.
36. Теория международных отношений на рубеже столетий. / Под ред. К.Буса и С.Смита Пер. с англ. / Общ. ред. и предисл. П.А. Цыганкова. – М.: Гардарики, 2002.
37. Теория международных отношений. Хрестоматия. / Составление, научная редакция и комментарии П.А. Цыганкова. – М.: Гардарики, 2002.
38. Хасанов У. Введение в теорию международных отношений. – Ташкент: УМЭД, 2007.
39. Хидоятлов Г.А., Гуламов Х.Г. Всемирная история. Новейший период. Европа и США после Второй мировой войны (1945-1995 гг.). – Ташкент, 1999.
40. Хусаинов Ш., Гулямова Г., Талипова Н., Зарипова З. Интеграционные процессы в странах АТР и их опыт для Узбекистана. – Ташкент: УМЭД, 2009.
41. Цыганков П.А. Теория международных отношений. – М., 2004.
42. Ҳақимов Р. Ўзбекистон ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. – Тошкент: “Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриети”, 2001.

43. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Тошкент: Akademiya, 2006.
44. Barkin J. Samuel. International organization: Theories and Institutions. – Palgrave Macmillan, 2006.

Manbalar (hujjatlar)

45. Активное участие, современная оборона. Стратегическая концепция обороны и обеспечения безопасности Членов Организации Североатлантического Договора. Утверждена Главами Государств и Правительств в Лиссабоне. (2010) – Брюссель: Отдел общественной дипломатии НАТО, 2010. – на <http://www.nato.int/>
46. Договор об обычных вооруженных силах в Европе (1990 г.) – на <http://www.osce.org/>
47. Положение о порядке приема новых членов ШОС. – Ташкент, 2010.
48. Руководство Генеральной Конференции. – ЮНЕСКО, 2002. – на <http://www.unesco.org/>
49. Североатлантический договор. Вашингтон, Федеральный округ Колумбия, 4 апреля 1949 г. (Вашингтонский договор 1949 г.) – на <http://www.nato.int/>
50. Устав Организации Объединенных Наций. Сан-Франциско, 26 июня 1945 г. – на <http://www.un.org/>
51. Хартия Шанхайской Организации сотрудничества. Встреча глав-государств ШОС. Санкт-Петербург. 7 июня 2002 г. – на <http://www.sectsco.org/>
52. Charter of the Association of Southeast Asian Nations. Singapore, 20 November 2007. – ASEAN Secretariat, Jakarta, 2008. – at <http://www.aseansec.org/>
53. Conference on security and co-operation in Europe Final Act. – Questions relating to Security in Europe. – Helsinki, 1975.– at <http://www.osce.org/>
54. NATO Strategy Documents 1949 – 1969/ Edited by Dr. Gregory W. Pedlow, Chief, Historical Office, Supreme Headquarters Allied Powers Europe – at <http://www.nato.int/>
55. NATO Handbook. – Brussels: NATO Office of Information and Press, 2001. – at <http://www.nato.int/>
56. The Alliance's Strategic Concept. Approved by the Heads of State and Government participating in the meeting of the North Atlantic Council in Washington D.C. (1999). – at <http://www.nato.int/>

57. The Alliance's New Strategic Concept agreed by the Heads of State and Government participating in the Meeting of the North Atlantic Council (1991). – at <http://www.nato.int/>

Qo'shimcha manbalar

(ilmiy jurnallar, maqolalar to'plamlari, Internet manbalari)

58. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmatining rasmiy sayti – <http://www.press-service.uz/>
59. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy sayti – <http://mfa.uz/>
60. ASEAN mintaqaviy birlashmasining rasmiy sayti – <http://www.aseansec.org/>
61. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.un.org/>
62. BMT Taraqqiyot Dasturining rasmiy sayti – <http://www.undp.org/>
63. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.osce.org/>
64. Yevropa Ittifoqi rasmiy sayti – <http://www.europa.eu.int/>
65. Yevropa Kengashi tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.coe.int/>
66. Islom Konferensiyasi/Hamkorligi Tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.oic-oci.org/>
67. Kimyoviy qurollarni taqiqlash tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.opcw.org/>
68. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.cis.minsk.by/>
69. Xalqaro Atom Energiyasi Agentligining rasmiy sayti – <http://www.iaea.or.at/>
70. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.sectSCO.org/>
71. Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.nato.int/>
72. YUNESKO tashkilotining rasmiy sayti – <http://www.unesco.org/>
73. Qizil xoch xalqaro qo'mitasining rasmiy sayti – <http://www.icrc.org/>
74. Бизнес-гlossарий: Узбекистан и Европейский Союз/ Под общей ред. д.э.н., проф. Б. Ходжаева. – Ташкент, 2010.

75. Борко Ю. Расширение и углубление Европейской интеграции//Мировая экономика и международные отношения – №7. – Москва, 2004.
76. Лузянин С.Г. Шанхайская организация сотрудничества: модель образца 2008 года. – на <http://www.perspektivy.info/>
77. Стратегия России в Центральной Азии и Шанхайская организация сотрудничества. Сборник статей / Под редакцией А.В. Лукина. Институт международных исследований. – Москва: МГИМО – Университет, 2012.
78. Шлыков К. Какой быть ООН в XXI веке: проблема реформирования Совета Безопасности//Мировая экономика и международные отношения – №5. – Москва, 2001.
79. Forum of Reflexion «What UNESCO for the Future» 2006 – at <http://www.unesco.org/shs>
80. Kamp Karl-Heinz. «Global Partnership»: A New Conflict Within NATO? – Analysen und Argumente der Konrad-Adenauer-Stiftung No. 29/2006. – at <http://www.kas.de/>
81. Luck C.Ed. Reforming the United Nations: Lessons from a History in Progress//International Relations Studies and the United Nations Occasional Papers 2003 No. 1 – at <http://www.acuns.org/>
82. Mölder Holger. The evolution of NATO's Partnerships strategy – democratic peace or clash of civilizations? Paper prepared for the 6th Pan-European Conference on International Relations in Turin from 12 to 15 September 2007 (Session 1-23: Cooperation and Conflict in Transatlantic Relations). – at http://turin.sgir.eu/uploads/Molder-the_evolution_of_nato_1.pdf
83. Negotiation Journal – <http://www.pon.harvard.edu/publications/negotiation-journal/>
84. UN Reform Chronology. Global Policy Forum – at <http://www.globalpolicy.org/>
85. World Heritage Centre – <http://whc.unesco.org/>
86. Yearbook of International Organizations Online – Union of International Associations – <http://www.uia.org/>
87. <http://www.consilium.europa.eu/>
88. <http://www.ec.europa.eu/>
89. <http://www.europa.eu/>
90. <http://www.eurunion.org/>
91. <http://www.mgimo.ru/system/php/print.phtml?url=/sco/index.phtml#>

Asosiy ilmiy-ommabop jurnallar

Азия и Африка (сегодня)

Восток

Дипломат

Компас

Космополис

Международная жизнь

Международные отношения

Международные процессы

Мировая экономика и международные отношения

Общество и экономика

США и Канада

Россия в глобальной политике

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

N.MUMINOVA

XALQARO TASHKILOTLAR

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: G. Islamova

Original-maket: A. Derevyanskaya

Nashrga taqdim etilgan materiallar, ularda keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlar, shuningdek, nashrga taqiqlangan ma'lumotlarni oshkor qilish uchun nashr mualliflari javobgar.

JIDU ruxsatisiz qayta chop etish man qilinadi.

Format 84x108 1/32. Hajmi 4 b.t.

Adadi 15

JIDUda chop etilgan
100113, Toshkent, Mustaqillik ko'chasi, 54.